

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI  
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA  
INSTITUTI  
TURKIY TILLAR FAKULTETI  
O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI**



5111200 - o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta‘lim yo‘nalishi

4- «B» kurs talabasi

**SHAMURATOVA YULDUZ QUROLBOY QIZIning**

**«UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA BOLALAR  
IJODKORLARI HAYOTI VA IJODINI O‘QITISH USULLARI»**

mavzusida

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar:**

**f.f.d., Prof. K. Quramboyev**

**Kafedra mudiri:**

**f.f.n., dots. S.Matyakupov**

**Tayyorlagan:**

**Y. Shamuratova**

*O‘zbek tili va o‘zbek adabiyoti kafedralari qo‘shma yig‘ilishining 2021- yil*

*\_\_\_\_\_ - bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.*

**NUKUS – 2021**

**Davlat attestatsiya komissiyasi**

**QARORI:**

5111200 – o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi 4- «B» kurs talabasi Shamuratova Yulduz Qurolboy qizining «Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida bolalar ijodkorlari hayoti va ijodini o‘qitish usullari» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga «\_\_\_\_» ball («\_\_\_\_%») qo‘yilsin.

«\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2021- yil

DAK kotibasi: \_\_\_\_\_

## **MUNDARIJA**

**KIRISH. Bitiruv malakaviy ishining umumiy tavsifi .....1**

**I BOB. Maktablarda jahon va qardosh xalqlar bolalar adabiyoti vakillari hayoti va ijodini o‘rganish.....5**

**1.1. Ezop va Nodar Dumbadze asarlarining tarbiyaviy ahamiyati.....5**

**1.2. Janni Rodari va Aka- uka Grimmlar ertaklarining g‘oyaviy- badiiy xususiyatlar.....18**

**II BOB. O‘zbek bolalar adabiyoti yozuvchilari hayoti ijodini o‘rganish yo‘llari.....26**

**2.1. Anvar Obidjon she‘rlari- bolalar qalbi, ruhining yorqin ko‘zgusi .....26**

**2.2. Xudoyberdi To‘xtaboyev bolalar adabiyotining yirik vakili.....33**

**III BOB. Bolalar yozuvchilari hayoti va ijodini o‘qitish metodikasi.....42**

**3.1. Bolalar yozuvchilari hayoti va ijodini o‘qitish metodikasi bo‘yicha mulohazalar.....42**

**3.2. Umumta‘lim maktab darsliklarida berilgan bolalar yozuvchilari hayoti va ijodi bo‘yicha takliflar.....48**

**XULOSA.....56**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....60**

## KIRISH

### *Bitiruv malakaviy ishning umumiy tavsifi*

**Mavzuning dolzarbligi.** O‘zbekiston o‘z mustaqilligini olgan dastlabki kunlardan boshlab ta’lim, jumladan umumta’lim maktablarida ta’lim tizimini takomillashtirish, shakl va mazmun jihatdan tamomila yangi darajaga ko‘tarish ishlari kun tartibiga qo‘yilgan. Bu sohada qator tadbirlar amalga oshirildi. Ayniqsa, umuta’lim maktablarida adabiyot darslarini ham sifat ham son jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish ishlari boshlanib ketdi. Darsliklar qayta yozildi. Qator qo‘llanmalar ishlab chiqildi. Dasturlarga bir necha o‘zgartirishlar kiritilib darsga moslashtirildi. Ayni paytda adabiyot darsini o‘qitadigan o‘qituvchilarni qayta tayyorlash ishlari yo‘lga qo‘yildi. Adabiyotning har bir sohasini o‘qitadigan o‘qituvchilar guruhi shakllantirildi. Jumladan, umumta’lim maktablarida bolalar adabiyotini o‘qitish masalalari shular qatoriga kiradi.

Bilamizki, bolalar adabiyoti umumo‘zbek adabiyotining bir sohasi. Bu adabiyotga hamisha katta e’tibor qaratib kelingan va bu jarayon shu kunlarda ham qizg‘in davom etmoqda. Umumta’lim maktablarida bolalar adabiyotini o‘qitish eng murakkab va eng mas’uliyatli jarayonlardan biridir. Buning uchun nafaqat o‘zbek adabiyotini yaxlit, ayni paytda bolalar adabiyotini ham puxta bilish talab qilinadi. Sir emaski, bolalar adabiyotini o‘qitishning kattalar adabiyotini o‘qitishdan farq qiladigan tomonlari bor. Bunga o‘qituvchi ham psixologik jihatdan tayyorgarlik ko‘rishi zarur. Sinfda o‘qitiladigan bolalar shoiri yozuvchisi ijodini atroflicha bilishi, o‘tilayotgan asarinigina emas, butun ijodidan xabardor bo‘lmog‘i kerak. Ko‘rgazmalilik bolalar adabiyotini o‘qitishda alohida ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi mavzuni tushuntirayotganda o‘quvchilar psixologiyasini ham his qilib turishi, darsni shunga qarab moslashtirib olib borishi kerak. O‘quvchiga taqdim etilayotgan mavzu, material qanchalik o‘quvchilar yoshiga mos yoki mos emas. Dars jarayonida o‘qituvchi shu mezondan kelib chiqib ish yuritsa, kutilgan natijaga erishadi. O‘quvchilarni mavzuga qiziqtirishi mumkin. Buning uchun oq‘ituvchiga

pedagogik mahorat, o'ziga xos bolalar bila ishlash usuli bo'lmog'i lozim. Zamonaviy bolalar adabiyoti boy va rang- barang. H. H. Niyoziy, Z. Diyor, Q. Muhammadiy, Q. Hikmat, P. Mo'min, X. To'xtaboyev, S. Barnoyev, H. Nazir, A. Obidjon, Q. Turdiyeva va yana vakillarining ijodlaridan namunalar umumta'lim maktablarida o'rgatilgan. Bu yozuvchi va shoirlarning asarlari nafaqat o'zbek adabiyotida, balki jahon adabiyotida ham hurmat bilan tilga olinadi. Masalan, Q. Hikmat, P. Mo'min, X. To'xtaboyev kabi yozuvchilarning ko'pgina asarlari qardosh va jahon adabiyotining bir necha tillariga o'girilgani, bu yozuvchilarning ijodiy salohiyati naqadar yuksak ekanligidan darak beradi.

Biz tilga olgan yozuvchi va shoirlarning ijodi umumta'lim maktablarida hali yetarli darajada o'rganilmagan. Bular haqida ilmiy tadqiqotlar ham yetarli emas. Biz ushbu mavzuning o'rganilish darajasi hozirgi kun talablariga unchalik javob bermayotganligini nazarda tutib, imkoniyatimiz darajasida o'z amaliy tajribamiz ( pedagogik amaliyotdagi) asosida yoritishga harakat qildik.

**Mavzuning o'rganilish darajasi.** O'zbek adabiyotshunosligida pedagogik va metodik yo'nalishda bolalar adabiyoti, uni maktablarda o'qitish bo'yicha gapirganda, S. Matjon, A. Husanboyeva, A. Zunnunov va yana boshqa qator olimlarning tadqiqotlarini tilga olgan bo'lardik. Q. Muhammadiy, Q. Hikmat, Z. Diyor va ayrim yozuvchilarning ijodi bo'yicha bir qator ishlar yaratilgan. Lekin shunday yozuvchilar ham borki, ularning ijodi bo'yicha kattaroq ish qilinmagan. Shulardan biri X. To'xtaboyevdir. Yozuvchi o'zbek adabiyotining zabardast vakili hisoblanadi. Uning asarlari dunyoning ko'plab tillariga tarjima qilingan. Shunday ekan bu yozuvchining ijodini o'rganilishini talqin etish hamisha dolzarb masala bo'lganligi sababli ushbu bitiruv malakaviy ishimizda uning ijodini o'rganishga alohida to'xtaldik. Shuningdek, taniqli shoir, bolalar yozuvchisi A. Obidjon ijodining maktablarda o'qitilishi haqida biror ilmiy ish yozilgani bizga ma'lum emas. Ko'rinadiki, bu yozuvchilarning ijodini umumta'lim maktablarida o'rganish bugungi adabiyotshunoslikning muhim masalasi. Bizning ushbu bitiruv malakaviy

ishimizda tilga olinga yozuvchi va shoirlar haqida yozilgan ilmiy ishlarning ustini qisman bo'lsa-da to'ldirsa, maqsadimizga erishgan bo'lardik.

**Tadqiqotning maqsadi.** Ishimizdan ko'zlangan asosiy maqsad, umumta'lim maktablarida bolalar adabiyotini o'rganish haqida o'z kuzatishlarimizni bayon etishdan iborat. Pedamaliyotda orttirgan tajribamizga asosida yozilgan mazkur ishimiz kelajakda o'z faoliyatimizda va bshqa o'qituvchilar faoliyatida asqatsa maqsadimizga erishgan bo'lardik.

**Tadqiqotning vazifalari.** Bitiruv malakaviy ishimizdan ko'zlagan asosiy maqsad umumta'lim maktablarida bolalar adabiyotini o'rganish usullari haqida fikr yuritishdan iborat. X. To'xtaboyev va A. Obidjon ijodini umumta'lim maktablarida bolalar adabiyotini o'qitishda qanday usullardan foydalansa samara berishini isbotlashdan iborat. Harbir yozuvchi va shoirning ijodini o'rganganda qaysi metodik usullardan foydalangan ma'qul ekanligini, shoirlik yoxud yozuvchilik mahoratini gapirganda nimalarga ko'proq e'tibor qaratgan ma'qulligi, o'quvchilarda badiiy matnni tahlil qilish ko'nikmasini hosil qilish haqidagi qarashlarimizni ifodalash asosiy vazifalarimizdan biridir.

**Tadqiqotning obykti.** Tadqiqotimizda bolalar adabiyotini tahlil obykti qilib tanladik. X. To'xtaboyev va A. Obidjon, Ezop, Nodar Dumbadze, Janni Rodari, Aka- uka Grimmlar asarlarini tahlilga jalb etdik. Ularning ijod namunalari, bolalar adabiyoti yuzasidan o'zbek va jahon adabiyotshunosligida yozilgan ilmiy ishlarga ham murojaat etdik, ularga metodik manba sifatida yondashdik.

**Tadqiqotning predmeti.** Ushbu ishimizga o'zbek bolalar adabiyoti, jahon bolalar adabiyotidan namunalar, asosan X. To'xtaboyev va A. Obidjon, Ezop, Nodar Dumbadze, Janni Rodari, Aka- uka Grimmlar asarlari predmet vazifasini o'tadi.

**Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari.** Bitiruv malakaviy ishimizni yozish jarayonida, shu yo'nalishda o'zbek adabiyotshunosligida yaratilgan ilmiy ishlarga metodik manba sifatida yondashdik. S. Matjon,

A. Zunnunov, Q. Ahmedov, A. Suyunov kabi olimlarning ishlaridan metodik manba sifatida foydalandik.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Bitiruv malakaviy ishimizning yangiligi shundan iboratki, biz tadqiqotimizda birinchi marta umumta'lim maktablarida jahon bolalar adabiyotini o'qitish usullari, shuningdek Xudoyberdi To'xtaboyev va Anvar Obidjon kabi yozuvchilarning ijodini o'rganish masalalarini ko'rib chiqishga jazm etdik. Bu tajribamiz umumta'lim maktablarida jahon bolalar adabiyotini o'qitishda saqatishhiga ishonamiz.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Ishimizning natijalaridan tavsiya va takliflarimizdan bolalar adabiyotidan dars beradigan har bir o'qituvchi foydalanishi mumkin. Biz tavsiya qilgan usullar: bolalar adabiyotini o'rganganda ko'rgazmalilikdan foydalanish, matn ustida ishlashga o'rgatish, o'quvchilar bilimni baholashda nimalarga e'tibor qaratish lozimligi haqida tavsiyalarimiz har bir adabiyot o'qituvchisiga asqatishi mumkin. Mazkur ishni pedamaliyotda to'plagan tajribam orqali yozayotganimni yana bir marta eslatmoqchiman.

**Tadqiqot natijalarining amaliyotga tadbiiq qilinishi.** Bitiruv malakaviy ishimizni yozishda to'plagan tajribam kelajakda pedagogik faoliyatimda qo'l kelishiga ishionaman. Qolaversa, ishimizni yozishda to'plagan tajribam, o'zim ishlaydigan umumta'lim maktabi o'qituvchilari orasida ham ommalashtirish niyatidaman. Menimcha. Bu ilmiy ishimizni amaliyotga tadbiiq qilinishini anglatsa kerak.

**Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi.** Kirish va xulosadan tashqari, uch bobdan iborat. Har bir bob ikki faslga ajratilgan. Ishning oxirida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ilova qilingan. Bitiruv malakaviy ishimizning umumiy hajmi 60 betdan iborat.

# I BOB. JAHON BOLALAR YOZUVCHILARI HAYOTI VA IJODINING O'RGANILISHI

## *1.1. Ezop va Nodar Dumbadze asarlarining tarbiyaviy ahamiyati*

Bolalar adabiyoti deganda biz yozuvchilar tomonidan ularga mo'ljallab yozilgan maxsus asarlarni tushunamiz. Ijtimoiy ong shakllari, ta'limiy, mafkuraviy ishning barcha sohalari kabi, bolalar adabiyoti ham voqelik bilan hayotdagi turli ijtimoiyhodisalarhamda insoniyat turmushi bilan bog'liq bo'lib, ularni o'ziga xos vositalarda badiiy aks ettiradi. Bolalar adabiyotida ifodalangan voqeliklar hayotiy, haqqoniy tasvirlanish hamda ularning ruhiyatiga, ongiga mos, tushunarli va albatta, qiziqarli bo'lishi kerak.

Shunga ko'ra, bolalarga atalgan badiiy asarlar ularning xarakter xususiyatlarini to'la namoyon qilishi bilan bir qatorda pedagogika va psixologiya fanlari bilan uzviy aloqada bo'lishi, demakki, muayyan ma'rifiy-estetik, tarbiyaviy g'oyani ilgari surishi lozim. Bolalar adabiyotining yana bir muhim xususiyati shundaki, uning pedagogika bilan mahkam bog'langan hisoblanadi. Bolalar adabiyoti talablari bilan birga pedagogika talablariga ham alohida e'tibor berilishi lozim. Ana shu talablar asosida yaratilgan g'oyaviy - badiiy yuksak asarlar bolalar uchun eng qimmatli kitoblar hisoblanadi hamda adabiyotning yuqori cho'qqilaridan o'rin egallaydi.

Hozirgi zamon bolalar adabiyotining eng yaxshi asarlari katta badiiy kuchi, boy, ravon, obrazli va ifodali tili bilan ajralib turadi. Shu sababli bunday asarlar murg'ak kitobxonning sevimli do'stiga, hamrohiga aylanib qoladi.

Insonni bolalarga, avvalo buyuk qahramon, noma'lum mamlakatlarni kezgan qo'rqmas sayyoh, afsonaviy pahlavon, haqiqat uchun kurashuvchi, o'z orzu-umidlariga sodiq, irodali qilib ko'rsatish kerak. Zero, bola asardagi yaxshi xarakterli, saxiy, rostgo'y o'zida jamiki yaxshi fazilatlarni jamlagan ijobiy qahramonga qarab intilsin, havas qilsin.



O'qituvchi va tarbiyachilarning bolalar adabiyotidan foydalana bilishlari, maktabda va bog'chada ta'lim - tarbiya ishlarining sifat va samarasini yanada yuqori darajaga ko'tarishi, o'quvchilarning badiiy kitoblarga bo'lgan muhabbatini oshirish ishlarini yaxshilash vositalaridandir.

O'qituvchi o'qitiladigan mavzuning mohiyatiga e'tiboran dars jarayonida o'quvchilarning ijodiy tafakkurini o'stirishga, ularda ifodali o'qish ko'nikmasini hosil qilib boradi. Ma'lumki, badiiy asar o'quvchilarni estetik did va tushunchasini shakllantiradi, shoir ijodiga havas hissini oshiradi, buning uchun o'quvchining o'zi ifodali o'qish qonun- qoidalarini bilib olishi kerak. Ifodali o'qish badiiy o'qish san'atini egallashi uchun zamin hozirlaydi. Bolalar uchun ravon til bilan yozilgan badiiy asarlar uning g'oyaviy mazmunini tushunishga yordam berishi bilan birga kitobxonning nutqini o'stiradi, boyitadi, xalq tilining kuchi, boyligi va go'zalligini his qilishga imkon beradi. Eng muhimi, Ona tiliga muhabbatini oshiradi.

Bu o'z navbatida o'quvchi shaxsini bir butun ijtimoiy birlik sifatida shakllantirish jarayonini tezlashtiradi. Ta'lim mazmunining yangi modelini tanlashda jamiyat va shaxs hayotini rivojlantirishning quyidagi asosiy ikki yo'nalishiga tayanish lozim:

1. Global, umummilliy va huquqiy muammolarni hal qilish orqali jamiyat a'zolarining hayotiy faoliyatlarini me'yorlashtirish.

2. "Yangi Renessans" davri bozor iqtisodiyoti munosabatlariga faol kirishish huquqini ta'minlaydigan, ilmiy-texnika hamda texnologiyalardan foydalana oladigan yuksak texnologiyalarni yaratish orqali dunyo bozorini zabt etish salohiyatiga ega bo'lgan yosh avlod kadrlarini, kasb-hunar va ilm-fanning sara vakillarini tayyorlashga erishish.

Bu o'rinda o'quvchilar o'zlashtirgan bilimlar o'quv jarayonining natijasi sifatida faqat ularning o'zlarini har tomonlama rivojlantirib qolmasdan, balki ilm-fan, texnologiyalar, ishlab chiqarish, bir so'z bilan aytganda, butun jamiyat hayotini ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy-demokratik jihatdan rivojlantira olishi kerak. Shuningdek, ta'lim jarayonida o'quvchining har tomonlama savodxonligi,

ma'lumotliligi, madaniyatliligi, huquqiy-iqtisodiy bilimdonligi, ijtimoiy hayotga tayyorlik darajasi ta'minlanishi kerak. Bunda avvalambor, O'zbekistonning jahon axborot maydoniga chiqayotganligini e'tiborga olish kerak. Turli darajadagi axborot manbalaridan foydalanishda, ayniqsa, o'quvchi yoshlar va talabalar faollik ko'rsatmoqdalar. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida ularga axborot manbalaridan olingan ma'lumotlarga xolis, mentalitet hamda milliy manfaatlarimiz nuqtayi nazaridan yondashish ko'nikmalarini qaror toptirish lozim. O'quv-biluv jarayonida o'quvchilarni olingan axborotlarni mustaqil tahrir qilish, ularga xolis fikr bildirish, zararli odatlar, buzg'unchi g'oyalar, ekstremistik qarashlarga qarshi murossasizlikka odatlantirib borish bugungi kunda juda muhimdir. Buning uchun esa birinchi navbatda o'quvchilarda vatanparvarlik, milliy g'urur, fidoiylik, safarbarlik kabi tuyg'ularni kuchaytirish lozim. Hozirgi paytda ta'lim - tarbiya tizimida o'qituvchining tahsil oluvchilar bilan jonli muloqot va munosabati muhim ahamiyatga ega bo'lganligiga qaramay, u yagona axborot manbayi bo'la olmasligi hayotiy haqiqat. Shuning uchun ham, ta'lim - tarbiya ishini osonlashtiradigan va samaradorligini oshirish omillaridan keng foydalaniladi. Ana shunday omillardan biri o'qitishning texnik vositalaridir. O'qitishning texnik vositalari deganda ta'lim - tarbiya jarayoni ishtirokchilarining hamkorlik faoliyatini ta'minlab, uning samaradorligini oshirish, ta'minlash maqsadida foydalaniladigan qurilmalar tizimi tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida shunday fikrlarni aytib o'tadi: "Shuni unitmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishga bog'liq". Shuning uchun ham avvalambor yosh pedagoglarning ta'lim sohasini yanada oshirish uchun o'quvchilarni zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirib bormog'i lozim bunda darsliklarni

ham xizmati katta. Bugungi kunimizning talablariga javob beradigan darsliklarni ishlab chiqmoqligimiz lozim.<sup>1</sup>

Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek "... maqol – matallar bejiz paydo bo'lmagan, ular ham ma'lum haqiqatning ifodasi"<sup>2</sup>. Bugungi kunimizni matal va masalsiz tasavvir qilib bo'lmaydi. Nutqimizni tasirchan bo'lishida bu janrlarning roli katta.

Masal (arab tilidan olingan, namuna, misol) - didaktik adabiyot janri. Ta'limiy xarakterdagi, aksariyat kichik she'riy, ba'zan nasriy shaklda yoziladigan asar. Masalda insonga xos xususiyatlar, jamiyatga xos ijtimoiy hodisalar, munosabatlar qushlar, hayvonlar orasidagi suhbat, munosabatlar va tabiat hodisalari vositasida aks ettiriladi. Mazmuni majoz asosiga quriladi, komiklikning va kinoyaning, ijtimoiy tanqid motivining ustunligi masalga hajviy ruh bag'ishlaydi. "Masal- majoziy xarakterdagi qisqa hikoyacha bo'lib, nasriy yoki she'riy shaklda yoziladi. Uning asosiy qahramonlari turli hayvonlar, narsa-buyumlardan iboratdir. Bular ramziy-majoziy ma'noda qo'lanilib, insonlar fe'l-atvoridagi turli xususiyatlarga ishora sifatida keltiriladi. Masalning asosiy jihati shuki, u to'liq ma'noda tarbiyaviy maqsadga yo'naltiriladi."<sup>3</sup>

Masallar ko'proq hayvonlar, jonivorlar, parranda-yu darrandalar, o't-o'lanlar misolida bo'ladi. Vaqti kelganda bular ustidan kulinadi, xulosalar chiqariladi.

Zero, insonni hayvondan ajratadigan sifatlardan eng birinchisi bu aql, odob, tarbiya, so'zlash quvvati va tildir. Inson aqli, zehni bilan yaxshi va

---

<sup>1</sup> Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: "Ma'naviyat", 2008, 61-bet.

<sup>2</sup> Karimov I. A. Barkamol avlod orzusi.– T.: "Sharq" NMIU, 1999-yil.

<sup>3</sup> Ahmedov S., Qosimov B., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik). II qism. – T.: Sharq, 2011-yil, 107-108-betlar.

yomonni, foyda va zararni ajrata oladi. Aql - inson rohatining madoridir. Bir donishmand „Aqling bilan qara, ko‘z xoindir, qalbing bilan eshit, quloq yolg‘onchidir“, degan ekan. Inson bir ishga kirishar ekan, eng avval, shu ishni aql kabi adolat o‘lchovida o‘lchab, keltiradigan foyda yoki zararini o‘ylab, so‘ngra shu ishga harakat qilishi lozim. O‘zi uncha tushunmagan ish haqida uni yaxshi tushunadigan mutaxassis maslahatini olish tavsiya etiladi. Go‘zal xislatlar komillikning bir nishonasidir. Go‘zal axloq ham aqlning kamolga erishganidan dalolat beradi. Bir majlisda hech kimga so‘z bermay, ezmalik qilib so‘zlay bermaslik, johil va nodonning so‘zlariga sukut bilan javob berishlik inson uchun g‘olibiyat va sadoqat bo‘lib, buning aksi esa pushaymonlik va tubanlikdir.<sup>4</sup>

Bu janr Yevropada ham yuqori cho‘qqiga ko‘tarilgan buni ular “Ezop tilida so‘zlash” yoki “Ezopona til” deb atashgan. Uning achchiq tili uchun ko‘rolmagan, hasadgo‘y dushmanlari uni Delfa shahrida tog‘ qoyasidan otib yuborib, o‘ldirganlar”.<sup>5</sup>

Tashkiliy qismdan so‘ng sinf o‘quvchilari 2 guruhga bo‘linadi. 1-guruh “Masalchi”, 2-guruh “Faylasuf”. Duskada 2ta katta savat surati qo‘yiladi (1-ilova). Har bir javob uchun guruh “olma” shaklidagi stikerlar bilan baholanib boriladi. Olingan ballar savatlarga yopishtiriladi. Dars so‘nggida qaysi guruhning savatida ko‘p va mazali meva “tergani” hisoblanadi.

**Qizil olma** – to‘liq javob uchun



;

**Sariq olma** – qisman to‘g‘ri javob uchun



;

---

<sup>4</sup> N. Hotamov, B. Sarimsoqov. Adabiyotshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – T.: “O‘qituvchi”, 1983.

<sup>5</sup> Ezop masallari. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2010.



**Yashil (xom) olma** – noto‘g‘ri javob uchun

## **II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash ( “Charxpalak” metodi orqali).**

Charxpalakning charxi doskaga yopishtiriladi. Har bir charxda Ezop masallari yozilgan. O‘quvchilar asarlarni yozilgan qahramonlariga muvofiq ketma- ketlikda



joylashtirishlari kerak

1. “Yovvoyi echkilar bilan cho‘pon”;
2. “Kiyik bilan tokzor”(…);
3. “Bo‘ri bilan laylak”(…);
4. “Ustiga tuz ortilgan eshak” (...);
5. “Eshak bilan baqalar”(…)
6. “Burgut, zag‘cha va cho‘pon”( …).

## **III. Yangi mavzu bayoni .**

**1-shart. “Aqliy hujum”.** Slaydda ko‘rsatilgan savollarga javob berish va har bir fikrni isbotlash.

**2-shart.** O‘quvchilarga masaldagi qahramonlarning nutqini yodlash topshirilgan bo‘ladi. Va asar voqealari sinf muhitida ko‘rsatib beriladi. Bunda guruhlardagi o‘quvchilarning aktyorlik va she‘rni ifodali o‘qish malakasi baholanadi.

**3-shart. Munozara- debat.** 1- guruh masallardagi qahramonlarning salbiy jihatlarini sanab isbotlab berishlari, 2-guruh esa uning ijobiy jihatlarini aytib, isbotlashlari kerak.



Ezop hayoti haqidagi ma'lumotlar o'sha davrdagi va undan keyingi asrlardagi solnomachilar tomonidan yozib qoldirilgan rivoyatlar, ibratli hikoyatlar orqali yetib kelgan. Uning 500 ga yaqin masallari qadim davrlardayoq jamlanib, "Ezop masallari" nomi ostida kitob qilingan va donishmandlik o'g'itlari sifatida butun dunyoga tarqalgan.

#### "Yovvoyi echkilar bilan cho'pon" masali

Cho'pon echkilarini yaylovga qo'yib yubordi. Bir payt qarasa, echkilar yovvoyi echkilar bilan o'tlashib yuribdi: xursand bo'ldi-yu kech kirgach, hammasini o'zining g'origa qamadi. Ertasiga havo buzuvchilik tufayli echkilarni odatdagidek yaylovga olib chiqolmadi: g'ordayoq boqishiga to'g'ri keldi. Cho'pon o'zining echkilariga nomigagina- o'lmagunday yem solgani holda, qo'lga o'rgatib olish niyatida yovvoyi echkilarga mo'l-ko'l qilib to'kdi. Ertasi, havo yurishib ketgach, echkilar tog'ga qarab ura qochdilar. Cho'pon ularni yaxshilikni bilmaydigan nonko'rlar, deya koyishga tushdi: "Axir men sizlarni o'zimning echkilarimdan-da yaxshiroq boqmadimmi?" Yovvoyi echkilar aytdilar: "Shuning uchun ham sendan narivoq yurishimiz ma'qul ko'rindi-da. Bizlar kechagina senga yo'liqqandik, sen esa bizni o'zingning eski echkilaringdan-da yaxshiroq boqding. Demak, ertaga yana yangilar kelib qo'shilsa, unda ularni bizlardan afzalroq ko'rarkansan-da?" .

Alqissa, yangi do‘stlami eskilardan afzal tutuvchilar bilan do‘stlashishga shoshilmang, zero yana yangi do‘stlar orttirganda siz ham eskilardan bo‘lib qolasiz.

Ezopning bu masalidan shunday g‘oya kelib chiqadi: Do‘stlik bilan sadoqat tushunchalari doimo yonma- yon tarzda olib boriladi. Inson hayoti davomida juda ko‘p qaltis vaziyatlarga tushish, turli sinovlarga duch kelishi mumkin. Ana shunday sharoitda faqat o‘z manfaatini o‘ylab, sizni yolg‘iz tashlab ketadigan yoki boshqa odamlarni do‘st tutib ketadiganlardan naribroq bo‘lgan ma‘qul. Do‘stga sadoqat, vafodorlik haqida ulug‘ bobokalonimiz hazrati Alisher Navoiy ham “Mahbub-ul qulub, ya’ni “qalblarning sevgani” nomli ma’rifiy axloqiy asarlarida shunday fikrni aytadi:

“Do‘st uldirki, o‘ziga ravo ko‘rmagan narsani do‘stga ham ravo ko‘rmaydi. O‘zi do‘sti uchun o‘linga tayyor bo‘lsa ham, ammo do‘stni bu ishda sherik qilmaydi”<sup>6</sup>. Masalan, Ahmad Yassaviyning “Hikmatlar”<sup>7</sup> asarida nafsning yomon oqibatlarga olib kelishi haqida bir qancha fikrlari bor.

Nafs yo‘lig‘a kirgan kishi rasvo bo‘lur,  
Yo‘ldan ozib, toyib, to‘zib gumroh bo‘lur,  
Yotsa qovnsa shayton bila hamroh bo‘lur,  
Nafsni tepkil, nafsni tepkil, ey badkirdor.

**Dars oxirida o‘qituvchi tomonidan hamma shartlar bo‘yicha natijalar e‘lon qilinadi va so‘nggi xulosalovchi fikrlar aytiladi.** Ko‘rinadiki, Ezop masallari hayotiyliigi bilan, odamlarning fazilat-yu nuqsonlari, qusur-kamchiliklari, noto‘g‘ri xatti-harakatlarini aniq ko‘rsatib bera olgani, ma’naviy ibrati bilan hozir ham o‘z ahamiyatini to‘la saqlab kelmoqda. Bundan bir necha ming yillar avval yaratilgan bu majoziy hikoyatlar dunyodagi barcha tillarga tarjima qilinib, shu yo‘sinda ijod qiluvchi davomchilari yetishib chiqishiga omil bo‘ldi. Fransuzlarda J. Lafonten, rus adabiyotida I. Krilov kabi masalchi

---

<sup>6</sup> Alisher Navoiy. “Mahbub ul- qulub” –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi ijodiy-matbaa uyi, 2011. 453- 454- betlar.

<sup>7</sup> A.Yassaviy. Hikmatlar. Nashrga tayyorlovchi I. Haqqulov. -T.: 1991.

adiblar Ezop masallarini qayta ishlab, ijodiy boyitib, o‘z davri xususiyatlariga ko‘ra to‘ldirib, rivojlantirdilar. o‘zlari ham ulardan ilhomlanib, yangi masallar yaratdilar.

Yana bir bolalar Atoqli gruzin yozuvchisi Nodar Dumbadzening nomi o‘zbek o‘quvchilariga yaxshi tanish. Uning “Nishonga tegmagan o‘qlar” (“Kukaracha”), “Abadiyat qonuni”, “Qo‘rqmang, onaginam”, “Oq bayroqlar”, “Ellada” (“Hellados”) kabi asarlari allaqachon kitobxonlarning ko‘ngil mulkiga aylangan. Dumbadze ijodiga kuchli insonparvarlik, oqibat, do‘stlik, insof- diyonat, mehr-muhabbat tuyg‘ulari singib ketgan. Adibning bir qancha kitoblari taniqli tarjimon Nizom Komil tomonidan o‘zbekchaga mahorat bilan o‘girilgan.

Nodar Vladimirovich Dumbadze 1928-yilda Gruziya poytaxti Tbilisi shahrida dunyoga kelgan. Yozuvchining ko‘pgina asarlarida ikkinchi jahon urushi yillaridagi gruzin qishloqlaridagi mashaqqatli hayot manzaralari bir-biriga o‘xshamaydigan taqdir egalari obrazida yorqin aks ettirilgan. Nodar Dumbadzening asarlarida odamiylik, oqibat, mehr, vijdon, hayot talab etadigan fidoyilik kabi tushunchalar birinchi o‘rinda turadi. Uning ayni shu kabi xislatlar tarannum etilgan “Abadiyat qonuni” asari esa nafaqat Gruziyada, balki ko‘pgina boshqa davlatlarda ham qidirib topib o‘qiladigan asarlardan biridir. Adibning “Abadiyat qonuni” romanidan tashqari o‘nlab hikoyalari, “Kukaracha” qissasi, “Oq bayroqlar” singari romani mohir tarjimon Nizom Komil tomonidan o‘zbek tiliga ham tarjima qilinib, kitobxonlarimizga taqdim qilinganligi ma’lum.

Adib asarlaridagi voqealar tizimi kuchli drammatizmi bilan birgalikda, samimiy yumir ufurib turganligi bilan ham o‘quvchi ongiga singib qoladi. Nodar Dumbadze ijodidagi qadriyatlarga sodiqlik, keksalarni ulug‘lash, vatanga mehr kabi umuminsoniy g‘oyalar mujassamligi adibni ko‘plab o‘zbek kitobxonlarining ham sevimli yozuvchilaridan biriga aylantira oldi.

Ahmedov S., Qosimov B. va boshqalar hammuallifligidagi 5- adabiyot darsligi<sup>8</sup>da 253- 254- sahifalarida joylashgan bo‘lib, o‘quv rejada IV chorak 65-

---

<sup>8</sup> Ahmedov S., Qosimov B. va boshq. 5- sinf adabiyot darsligi, 253-254- betlar.



66- darslar va Nodar Dumbadze hayoti va ijodiga bir, “Hellados” hikoyasiga bir soat, jami ikki ajratilgan.

“Hellados” hikoyasini umumta’lim maktablarida o‘tishda juda ko‘plab usullardan foydalanish mumkin. Jumladan, hikoya mazmuni bilan tanishib bo‘lgach, sinfni guruhlarga ajratib, ularning har biriga asardan olgan taassurotlaridan bog‘lanishli matn tuzishini topshiriq qilish mumkin.

**“Chaqqonlar” guruhi:** Men ularning har ikkisini birday yaxshi ko‘rardim, Jamolni ham, mushtumzo‘r Yangulini ham. Bolalar o‘rtasidagi mushtlashuv jarayonini o‘qiyotganimda Jamolning yutib chiqishini xohlar va ayni paytda shunday g‘amxo‘rlik bilan Yangulining yutqazishini sira istamas edim. Bu o‘ziga xos to‘qnashuv edi. Hikoyadagi Yanguli kemaga minib jo‘nab ketishi oldidan Jamolning yoniga kelib eshagini olib qolishni bolalarcha samimiy dilgiriklik bilan so‘raganida ko‘zlarimga yosh qalqqan bo‘lsa, asar nihoyasida Kelasuri daryosidan baliqchilar topib olgan jasad haqida o‘qir ekanman, chinakam dard bilan ho‘ng-ho‘ng yig‘laganim (bu yozuvchining beqiyos mahorati nishonasidir) kechagiday yodimda turibdi...

**“Epchillar” guruhi:** Jamol Yanguli bilgan boshqa bolalarga o‘xshamasdi. U irodali, ayni paytda o‘ziga hukm o‘tkazishlariga yo‘l qo‘ymaydigan darajada mag‘rur bola edi. Jamol birinchi marta o‘zining shunday hislatlari bilan Yangulini qiziqtirib qo‘yadi, qolaversa o‘ziga nisbatan adovat uyg‘otadi. Xo‘sh, ammo bu adovatning asl sababi nima edi? Yanguli nima uchun bunday olishuvni, murosasiz kurashni boshladi? Jamol aslida yosh, o‘yinqaroq bola bo‘lsa ham o‘ziga xos xarakterga ega. Uning o‘rnida boshqa bola bo‘lganida balki yana bir- ikki marta kaltak yeganida bu to‘daga bo‘ysunib ketgan bo‘lardi. Jamol esa bu “zo‘ravonlar”ga bo‘sh kelishni istamaydi. Uning shu qat’iyati, jasurligi, o‘zini xor qildirib qo‘ymasligi, oxir- oqibatda “dushmanlar”ning do‘st bo‘lishiga olib keladi.

O‘quvchilarning fikrlari xulosalangach, o‘qituvchi tomonidan yangi metod “Detektiv” metodi e‘lon qilinadi. Bunda har bir guruhga hikoya qahramonlarining xarakter- xususiyatlarini ochib beradigan lavhalarni topib izohlash topshiriladi.

Anglaganingizdek, hali bolalik dunyosini tark etmagan bezorilikni kasb qilgan o'spirin o'zi ulg'aygan Venetsian ko'chasini butun bir Vatan deb bilardi. U o'z "vataniga" faqat o'zi hukmron bo'lishni istar, "vatanida" paydo bo'lgan begona bolaning dadilligi esa uni g'ashini keltirardi, shu bilan birga jinday cho'chitardi ham – u, "vataniga" o'zga bir bola "ega chiqishidan" cho'chirdi. Ha, o'quvchida dastlab tarbiyasiz, bezori sifat taassurot qoldiradigan Yanguli o'zi bilib-bilmasdan guyo Vatan himoyasiga kirishganday edi! Bu esa har ikki bolaning murg'ak tasavvurida, qalbida boshlangan yashash va vatan uchun bo'lgan o'ziga xos kurashning boshlanishi bo'ldi.

Yanguli uchun kutilmaganda "kelgindi" Jamol anchayin abjir chiqib qoladi. Bu ikkovlon o'rtasidagi adovatning yanada kuchayishiga olib keladi. Jamol hadeganda bo'yin egavermas, orada Yanguli uning o'zidan ko'ra kuchliroq ekanini his eta boshlaydi. Ammo buni tan olish, o'zgalarga bildirish Yanguliga o'zining Venetsian ko'chasini – Vatanini boy berishning xuddi o'zi edi! Shunda Yanguli kurash tusidagi sulxni o'ylab topadi. "Doim urishaveramizmi! – deydi u bo'sh kelmay. – Kel, ertadan boshlab so'kishamiz! Kim yutsa, o'sha g'olib!" Bu o'zining ojizligini dildan sezgan bolakayning naninki sulxi, balki o'z "vataniga" egalikni o'zida saqlab qolish uchun qo'llagan eng so'nggi ilinji edi.

**Shart oxirida o'qituvchi hikoyada yozuvchining mahorati, bosh g'oyasi haqida gapiradi:** Ammo gap faqat shundagina, ya'ni dahanaki olishuv o'quvchining bolalik chog'larini esga tushirib, totli xotiralarga oshno qilishidagina emas. Bu yerda boshqa bir gap, fikrimizcha adibning boshqa bir maqsadi ham bor bo'lgan. Asarni o'qigan o'quvchi eslasa, Jamolning haqoratli so'zlari tugab qoladi. "Onasiga o't!" – deb maslahat beradi uning xolavachchasi Koka. Jamol onani aralashtirib bo'lmasligini aytib bosh tortganda esa, Koka yana uni qistaydi: "Sheni deda vatire, degin! Uyat joyi yo'q buni!". Jamol Kokaning maslahatiga amal qilgandan keyin, Yanguli ham uni onasiga til tekkizib haqorat qiladi... Shu kundan boshlab ularning haqorat repertuarida tanho shu so'kishgina qolgan, Jamol Yangulini qachon ko'rmasin, gruzinchalab "Sheni deda vatire!", desa, Yanguli

grekchalab “Imana su ine prostikasa ineka, Jamol!” – deya javob qaytarardi. Biroq, bir kuni...

Muallif (o‘z ta‘biri bilan aytganda “na bir-biriga g‘anim, na yaqin do‘st” bo‘la olmagan) ikki o‘spirinning xayrlashish oldi qilgan suhbatini yozarkan, nazarimda asaridagi, yo‘q nafaqat asaridagi, shuningdek real hayotdagi Vatan va Vatanga bog‘liqlik hissi haqidagi eng go‘zal so‘zni, eng haqqoniy haqiqatni ayta olgan, desam yanglishmayman. Yanguli fojiasida uning otasinin ayblash ham to‘g‘ri emas menimcha. Chunki u ham o‘z vatanini Yangulidek yaxshi ko‘radi. Faqat uning vatani boshqa- Gretsiya- Ellada. Uni chindan ham o‘zi tug‘ilib o‘sgan makonda ajdodlar ruhi chorlamoqda. U ham bolaligi o‘tgan yerlarga, do‘stlariga, xotiralariga qaytishga haqqi bor.

**Dars ifodali o‘qish bilan davom ettiriladi. Doskaga guruhlardan ikki nafar o‘quvchi taklif qilinadi va Yanguli va Jamol rollarini ijro qilish topshiriladi.**

*“— Nega birga ketmoqchimassan? — deb so‘radim astoydil taajjublanib.*

*Yangulidan ancha vaqtgacha sado chiqmadi.*

*— Qandoq tushuntirsamikin... — deya gap boshladi u nihoyat. — Onam yo‘q, hatto eslolmayman ham. Otam uzzukun tomorqada yoki tirikchilik tashvishida... Men ko‘chada, Venetsian ko‘chasida katta bo‘ldim... Mening vatanim, mening Elladam bu — Suxumi, ko‘cha, Chalbash; bu — Koka, Petya, Kurlika, Fema, Qora dengiz, ko‘prik... — U bir yutinib olib, davom etdi: — Bu — Mida... qolaversa, sen...*

*...A‘zoyi badanim jimirlashib ketdi. Bunaqa so‘zlarni umrimda birinchi marta eshitayotgan edim.*

*— Bu nima bo‘lmasa? — Men Yangulining ko‘kragini ochib, baland ovozda o‘qidim: — Hellados.*

*— Bu — naqsh, Jamol. Vatan- ichkariroqda, naq yurakning o‘zida! — Yanguli qo‘lini ko‘ksiga qo‘ydi.”*

Darhaqiqat Yangulining qalbida ota-bobosi tug‘ilgan Gretsiya emas, o‘zi o‘sib ulg‘aygan Suxumi Vatan timsolida edi. Oqibatda u o‘zini bu vatani uchun, Jamoldan qizg‘onib ayovsiz mushtlashgan Suxumisi uchun qurbon qildi. Garchi muallif tamonidan Yangulining kemadan sakragani yoki greklar mingan kemanding halokatga uchragani aniqlashtirilmay, mavhumroq tarzda qoldirilgan esada, o‘quvchi sifatida men negadir yuragidagi Vatanidan ayrilishni istamagan Yangulining o‘zini kemadan suvga otganiga qattiq ishonaman. Hamda Yangulidagi bu fidoiylik urush asoratlari haqidagi bo‘lak ko‘pgina asarlardan farqli ularoq naqadar haqqoniy, naqadar samimiy ifoda topganini ta’kidlagim keladi. Shunday. O‘zining kichikkina vatani – Venetsian ko‘chasiga beqiyos mehr bilan yashagan Yanguli, tasavvurimda bunaqangi qurbonlikka shubhasiz qodir edi...

Jamolning nazarida, Yangulining o‘z to‘dasi oldida aytgan “tarixiy nutqi” maynabozchilik. Lekin Yangulining birorta gapi ham yo‘liga aytilgan emas. U haqiqatdan ham o‘zi va to‘dasidagi bolalarni vatanining “hur farzandlari” deb hisoblaydi. U rostdan ham Gruziya yerini, havosini, dengizini, jamiki daryolarini, o‘tlog‘-u qirlarini o‘ziniki deb biladi.

Demak, insonda o‘zligini tanitgan makon, sadoqatli do‘stlar orttirgan go‘sha, har qarichi ko‘zga to‘tiyo zamin, eng pok hislari tug‘ilgan onlar Vatan degan tuyg‘uni paydo qiladi.

Asar haqidagi ushbu xulosalarim bilan aslida Nodar Dumbadze o‘z hikoyasi orqali insonlarga aytmoqchi bo‘lgan gaplarning o‘ndan birini ham bildira olmagan bo‘lishim mumkin. Lekin asarni mag‘zini oz-moz chaqib yetgan davrlarimdan boshlab hanuzgacha kitoblarda, ayrim tengdoshlarim tamonidan vatanga bag‘ishlab yozilgan baqiroq she’rlarda, yoki hayotning o‘zida har qanday soxta vatanparvarlikni ko‘rib qolsam, Yangulining Jamolga qarata aytgan o‘sha olovli so‘zlari quloqlarim ostida yangraganday tuyiladi: “Bu – naqsh, Jamol! Vatan bundan ichkariroqda, naq yurakning o‘zida bo‘ladi!”

E’tibor berish kerak, Yanguli hech qayerda o‘qib ta’lim olmagan, bezori , onasidan erta ayrilgan, otasi unga vaqt ajratolmaydigan bir ko‘cha bolasi. Garchi,

maktab ta'limi, ustoz tarbiyasi, ota- ona, aka-uka mehridan judo bo'lsa ham tabiatan ko'ngli nozik, aql- mushohadali edi. Qarang, Jamol Yangulining onasi yo'qligini bilsa ham, (Kokaning qistagani hamda bolaligiga borib) uni onasini qo'shib so'kishdan o'zini tiya olmaydi. Yanguli Jamolning onasi o'lganini bilgan zahoti, o'z raqibini quchoqlab, undan uzr so'raydi. Faqat bugina emas, Yanguli otasining zo'rliigi bilan Vatanini tark etyapti-yu, shu holatida ham Jamolning ko'nglini ko'tarishga harakat qiladi: "Jamol, oyingni yaxshi ko'raman".

## ***1.2. Janni Rodari va Aka- uka Grimmlar ertaklarining g'oyaviy- badiiy xususiyatlari***

Ertaklar bolalar adabiyotining betakror, beqiyos namunasi hisoblanadi. Undagi g'oya, sujet, ijobiy va salbiy obrazlar- barcha- barchasi tarbiyaga yo'g'rilgan bo'ladi. Bola ertak qahramonlarining xarakteridan o'ziga nimadir o'zlashtiradi. Oqni qoradan ajratishni o'rganadi. Yaxshi fazilatli kishilarga o'xshashga harakat qiladi. J. Rodarining «Hurishni eplolmagan kuchukcha» ertagi ham ana shunday voqealar zaminiga qurilgan. 6- sinf o'quv rejasida 13-14-15- darslar ajratilgan. Joriy darslikda berilgan «Hurishni eplolmagan kuchukcha» ertagiga to'xtalaylik. Darsning borishida quyidagi metoddan foydalanish samarali deb hisoblaymiz:

### **“Akvarium” usuli**

#### **Ta'rifi.**

1. 5-6 nafar ishtirokchilar rahbar bilan birga doira shakli bo'ylab o'tiradilar. Ular – «baliqlar». Ularning atrofiga guruhning qolgan ishtirokchilari o'tiradilar (yoki turadilar). Ular – «baliq ovchilari».

2. Ichki doira a'zolari («baliqlar») o'qituvchi taklif qilgan savolni faol muhokama qiladilar. “Baliq ovchilari” esa kuzatib turadilar va savolni muhokama qilayotgan biron o'quvchining fikri ularni qiziqtirib qolganda jarayonga kirishadilar: qo'shimcha qiladilar, savol beradilar, aniqlashtiradilar.

SHunda «baliq ovchisi» fikri uni qiziqtirib qolgan «baliq»ning yoniga turib olishi kerak.

3. Bir muammoning (masalaning) muhokamasi tugaganidan so'ng ishtirokchilar joylari bilan almashadilar (doiradan tashqarida turganlar endi doira bo'ylab o'tiradilar). Barcha ishtirokchilar doirada o'tirishlari maqsadga muvofiqdir.

#### Foydalanish doiralari.

Tabiiy va aniq fanlarni o'rganish jarayonlarida qo'llaniladi.

#### Afzalliklari.

Ishtirokchilarga norasmiy sharoitda fikr almashishga, berilgan muammoni (masalani) hal qilish bo'yicha o'z nuqtayi nazarlarini bayon etishga imkon yaratadi. Muhokama jarayoniga erkin qo'shilish va undan chiqib ketishga imkon beradi. Tahliliy fikrlash, e'tibor jamlash va kuzatuvchanlikni rivojlantiradi. Nutqni va teskari aloqa texnikasini rivojlantiradi.

#### Qiyinchiliklari.

Muammoni muhokama qilishda barcha o'quvchilar faol ishtirok etish jarayonida bahs-munozalar, nizolar yuzaga kelishi mumkin. Shu bois o'qituvchi yaxshi tayyorlanishi va kuchli qarama-qarshiliklar paydo bo'lishiga yo'l bermaydigan uslublarni bilishi lozim.

Aniq nazorat bo'lishini talab qiladi. Jarayon davomida ayrim o'quvchilar undan chiqib qolishlari (jarayonda ishtirok etmasliklari) mumkin. O'qituvchi muammoni muhokama qilishga barcha o'quvchilarni jalb qilish usullarini o'ylab chiqishi kerak.

Hurmatli o'quvchilar, bu ertak zamirida ham chigal muammoni qanday hal etish masalasi ko'ndalang bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Janni Rodari «Uchtadan oxiri bor ertaklar» turkumi bilan jahon ertakchiligida yangi bir usulni yaratdi.

Bu yangilik shundan iborat ediki, ularda voqealar yechimi uch xil yakun topadi. Bunda har bir yakun o'zining boshqasidan tubdan farq qiladigan mazmun-

mohiyatiga ega bo'ladi. «Hurishni eplolmagan kuchukcha» ham shu turkumga mansubdir. Ertakda tasvirlanishicha, bir kuchukcha aslida hurishi lozimligini eshitgani holda, uning qanday bo'lishini tasavvur qila olmaydi. Qolaversa, o'zining qaysi zotga mansubligi, nima bilan shug'ullanishi lozimligini uzoq vaqt anglay olmay sarson bo'ladi. Kimdir unga «Kuchuk degani huradi-ku» deb ta'na qilganda, yordam so'rab xo'rozga, kakkuga, sigirga murojaat qiladi. Biroq ular o'z tabiatlariga ko'ra nimaga qodir bo'lsalar, kuchukchaga shuni o'rgatadilar: kuchukcha ular «yordamida» xo'rozday qichqirishni, kakkuday sayrashni, sigirday mo'rashni o'rganib oladi, o'zicha bu hunarlar orqali mashhurlik darajasini egallayman, deb xomxayolga beriladi. Bir dehqon qo'lga tushganda esa, uning umuman hurmasligi evaziga bo'yniga zanjir osiladi, har kungi nasibasi bir parcha suyak bo'ladi.

Nihoyat, kuchukcha ovchi itning ko'magi bilan o'z mashg'uloti «vovullash»dan iborat ekanini tushunib yetadi va vovullab rohatlanadi. Bu, albatta, ertakning yuzaki mazmunidir. Buyuk adib ushbu ertak bilan nima demoqchiligiga e'tibor bering. «Men astoydil ertakning uchinchi tugashini yoqlayman. Inson uchun, avvalo, yaxshi bir ustoz darkor».

Haqiqatan ham, bu fikrga qo'shilsa bo'ladi. Adibning fikrlarini davom ettirib, ularga quyidagilarni qo'shimcha qilish mumkin: tabiat va jamiyatda hamma narsaning o'z o'rnini bo'lishi lozim. Jajji kuchukcha hayotda o'z o'rnini, mashg'ulotini topguncha qiynaldi, o'ziga yot bo'lgan mashg'ulotlar – xo'rozday qichqirish, kakkuday sayrash, sigirday mo'rashni ham foydali tomonga yo'naltirishga harakat qildi, go'yo. Hatto, hurishni bilmay turib ham o'ziga munosib ish topib olgandek ham bo'ldi. Biroq u faqat ovchi itiga duch kelgandagina ichida tushuntirish va tushunish qiyin bo'lgan tuyg'uni boshdan kechiradi.

Avvaliga qayerdan kelayotgani noma'lum bo'lgan g'alati ovoz uning yuragiga jiz etib tekkanday bo'ladi, yuragini o'ynatib yuboradi...

Endi bir savol ustida o‘ylab ko‘raylik: kakkudek sayrashni, xo‘rozdek qichqirishni, sigirdek mo‘rashni tinimsiz mashq qila-qila zo‘rg‘a o‘rgangan kuchukchadagi bu o‘zgarishning, hayajonning boisi ne? Nima uchun u «birdaniga hura ketadi»? Hamma gap shundaki, yozuvchi mana shu mitti kuchukcha taqdirida odamzodga xos bo‘lgan muhim va abadiy muammolardan biriga javob izlagan. Ya’ni dunyodagi har bir mavjudot, ayniqsa, inson, avvalo, o‘zini, o‘zligini tanimaguncha, kimning avlodi asosiy vazifasi nimadan iborat ekanini anglamagunga qadar hayotda o‘z o‘rnini hech qachon topa olmaydi. Bunday kimsalarning o‘zgalar kulgisi va mazaxiga duchor bo‘lishi aniqdir.

Bu jihatdan kuchukchanning dehqon qo‘liga tushgan holat Siz-u bizni, ayniqsa, jiddiy o‘yga toldirmog‘i lozim. O‘z tabiatidan yotlik, hayotdagi chinakam vazifasini anglamaslik kuchukchanning bo‘yniga temir zanjirni soladi, rizqini esa bir parcha suyakdan iborat qilib qo‘yadi.

Demak, har bir odamning, har bir xalqning, avvalo, o‘z tabiatiga sodiq bo‘lmog‘i, ajdodlari an‘analarini teran anglab yetmog‘i, ularni har narsaga chalg‘imay davom ettirmog‘igina uning o‘zligini tanishiga garov bo‘la oladi. Janni Rodari Siz bilan bizni ana shu haqiqatni unutmaslikka chaqiradi. Ertakdan kelib chiqadigan eng muhim xulosaning ma’nosi ham, asarning tarbiyaviy ahamiyati ham aynan shunda.

An’anaviy xalq ertaklarida og‘ir vaziyatga tushib qolgan qahramonga, aytilganidek, hayvonlar, qushlar, sehrli tayoqcha va qalpoqcha yordamga kelishadi. J. Rodarining ushbu ertagi esa zamonaviyligi bilan ajralib turadi. Unda bugungi uy-ro‘zg‘or buyumlaridan tortib to fazoviy kemalargacha bo‘lgan ashyolarni uchratamiz. Demak, har qanday zamonda ham insonning qadri oddiy ashyolardan baland turadi, har qanday davrda ham kimgadir yaxshilik qilish eng go‘zal fazilat bo‘lib qolaveradi, degandek bo‘ladi Janni Rodari.

Xulosa qilib aytganda, butun dunyo bolalarining sevimli yozuvchisiga aylangan J. Rodarining sanab o‘tilgan ertaklari, xususan, «Shahzoda Plombir» asarini topib o‘qish Sizga olam-olam zavq berishi shubhasiz.





Darsni mustahkamlash uchun o‘quvchilarga ushbu savollar bilan murojaat qilish mumkin:

1. Adibning hayoti va faoliyatini hikoya qilib bering.
2. Janni Rodarining mohir ertakchi bo‘lib yetishishiga nimalar sabab bo‘ldi?
3. Adib qanday xalqaro mukofotga sazovor bo‘lgan?
4. Janni Rodari ertakchilikka qanday yangilik kiritdi?
5. «Hurishni eplolmagan kuchukcha» ertagidagi kuchukcha obrazining uch xil yakundagi holatini izohlab bering.
6. Ertakning uchinchi yakunida kuchukchaning suyunib ketish sababini tushuntiring.
7. Nima uchun adibning o‘zi ushbu ertakning uchinchi yakunini yoqlaydi?
8. Ertak mazmunidan yana qanday ma’nolar uqdingiz?
9. Ertakning to‘rtinchi tugashini uyda o‘zingiz o‘ylab toping-chi.
10. «Shahzoda Plombir» ertagida senyor Moltenini qanday voqea qarzdorlikdan qutqaradi?
11. Mustaqil o‘qish uchun tavsiya etilgan ertak tahlilini sinfdoshlaringizga gapirib bering.
12. Sinfdoshlaringiz bilan hamkorlikda ertak yozishga harakat qiling.

Aka-uka (Yakob 1785–1863, Vilgelm 1786–1859) Grimmlar Magdeburg universitetida o‘qib yurgan chog‘laridayoq o‘rta asr olmon tarixi va madaniyati, huquq va mifologiyasi, xalq og‘zaki ijodi hamda til va adabiyoti bilan shug‘ullana boshladilar.

Grimmlar ertaklarning ko‘pchiligini bevosita ertak aytuvchilardan tinglab, ba’zilarini esa dehqonlar bilan suhbatlashib yozib oladilar. Xalqdan olingan ertaklarning har biri Grimmlar tomonidan qayta ishlanib, badiiy tus olib, yana xalqqa qaytariladi.

Grimmlarning dunyoga mashhur “Zolushka”, “Qor qiz” ertaklarining qahramonlari hammadan turtki yeydigan, so‘kish eshitadigan va eng past hamda qiyin yumushlarni bajaradigan qizlar bo‘lib, ertak davomida o‘zlarining halol mehnatlari, yoqimli so‘z va tabassumlari bilan baxtiyor bo‘ladilar.

Grimmlarning “Quyvon bilan tipratikan”, “Bo‘ri va tulki” asarlari masal janriga yaqin turishi bilan kitobxonda katta taassurot qoldiradi. “Yalqov Geysn”, “Gansning baxti”, “Botir tikuvchi”, “Yosh pahlavon”, “Bremen musiqachilari” kabi ertaklari o‘zbek bolalarining ham sevimli asarlariga aylanib qolgan.

“Yosh pahlavon” ertagidagi botir qiyofasi kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda katta qiziqish uyg‘otadi. U halol, pok inson bo‘lib, rostgo‘ylik, to‘g‘riso‘zlik shaydosi. Shu sababga ko‘ra u yo‘lida uchragan har qanday to‘siq va g‘ovni shoshilmay, jasorat va mardlik bilan yengadi, maqsadiga erishadi.

Ahmedov S., Qosimov B., Qo‘chqorov R. va boshqalar hammuallifligidagi 5- sinf adabiyot darsligi (2020)dan o‘rin olgan “Botir tikuvchi” ertagining sujeti ko‘pchilikka yaxshi tanish. (I chorakda 15- dars Aka- uka Grimmlar hayoti va ijodiga bir soat, “Botir tikuvchi” ertagiga bir soat ajratilgan.)

### **Yangi mavzu bayoni:**

Qahramon nogahon bir nechta pashshani bir urishda nobud qilish bilan o‘ziga o‘zi botir, dovyurak tamg‘asi – shiorini yozib, yelkasiga osib oladi. U baxtini, taqdirini sinab ko‘rish, peshonasida borini qo‘lga kiritish maqsadida safarga otlanadi. Aytilganidek. Aka- uka Grimmlar ertaklarining aksariyat qahramonlari oddiy xalq kishilari. Bosh qahramon Gans ham hunarmand tikuvchi. Ko‘pchilik mashhur asarlarda bo‘lgani kabi bu ertak ham oddiy voqea tasviri bilan boshlanadi. Murabbo surtilgan noniga “hujum qilgan” pashshalarning birdaniga “yettitasini yer tishlatgan” tikuvchi, bu ishini kamariga sirli ko‘rinishda yozib oladi.

Butun asar davomida Gans hech bir kishiga ozor yetkazmaydi, hech kimni aldamaydi. Afsuski, unga duch kelgan ulkan odamlar ham, saroy askarlari ham, qirol ham uning samimiyatini anglamaydilar. Yovuzlik bilan bo'lsa ham undan qutulishning yo'lini izlashadi. Lekin hech bir yomonlik jazosiz qolmasligi aniq.

Tikuvchiga nimalar yordam bergani, u juda murakkab vaziyatlardan nimalar evaziga omon qolganiga ham diqqat qilish lozim.

U tekinxo'r pashshalarga, maqtanchoq ulkan odamlar va sheriklariga ham, makkor qirolga ham, avvalo, yaxshi munosabat qiladi. Ulkan odamlarning biron narsasiga ko'z olaytirayotgani yo'q. Qirolga ham xizmat qilmoqchi edi. U aytgan topshiriqlarni "bajonudil" bajardi. Lekin ularning hammasi Gansga yomonlikni ravo ko'rishadi. Va oxirida o'zlari qazgan chohga o'zlari tushadi.

Ertakda aytilgan har bir narsa o'z yo'liga, vazifasiga ega. Masalan, tikuvchi safarga chiqar ekan, bir bo'lak pishloqni va butalarga o'ralashib qolgan kabutarni qutqarib cho'ntagiga soladi. Vaqti kelib bularning har biri unga qo'l keladi.

Botir tikuvchi tadbirkor, epchil, chaqqon. "Qochib qolguncha otib qol" qabilida dovyuraklik bilan ish ko'rishi unga katta shuhrat keltiradi. G'orda behisob devlar ustidan puxta-pishiqligi bilan g'olib chiqadi. Dev ko'tarib olgan daraxt shoxlari ustida qush kabi yengil o'tirishi, devlarning savollariga qo'rqmay, ustalik bilan javob berishi asrlar osha kitobxonni hayratga solib kelmoqda.

Botir tikuvchi uchun og'ir sinov o'rmondagi ikki pahlavon bilan "olishuv" bo'ladi. Podshoh tomonidan ikki pahlavonlarni mag'lub qilish vazifasini olgan botir tikuvchi tavakkal qilib yo'lga tushadi. Ustlariga tosh tashlash hisobiga ular o'rtasida nifoq chiqaradi. Ikki jangchi bir-birini tosh bilan urib nobud qiladi. Tadbirkor yigit bilimdonlik, o'ylab ish ko'rish bilan o'rmondagi shoxdor maxluq ustidan g'olib chiqadi.

Botir tikuvchining yumshoq so'zligi, muloyimlik bilan ish ko'rishi yosh kitobxonda yaxshi taassurot qoldiradi. Ularda ham xuddi o'sha botir tikuvchi kabi yetuk insonlar bo'lishga, botir, pahlavon bo'lishga havas uyg'otadi. Bu ertakning boshqalardan asosiy farqlaridan yana biri shuki, kambag'al odamlar o'zlarining


qahramonliklari evaziga boy bo‘lib, rohat- farog‘atga erishadilar. Ular hatto podsholarning qiziga uylanib yarim saltanatga ega chiqadilar. Aka- uka Grimmlarning ertagi esa mutlaqo boshqacha: “Tikuvchi bo‘lsa oshini oshab, yoshini yashab, kamzul-u nimchalarini tikaveribdi. Kamarni u devorga osib qo‘yibdi. Keyin esa ulkan odamlarni ham, qaroqchilarni ham, yakkashoxlarni ham bir umr ko‘rmabdi”.<sup>9</sup>

Xo‘sh, Aka-uka Grimmlarnima demoqchilar?

Agar inson bolasi rostgo‘y, halol, mard topqir va tirishqoq bo‘lsa, unga hech qanday yovuz kuchlar qarshi chiqa olmaydi. Hayotini tinch va osuda, boshqalarga yaxshilik qilish bilan o‘tkazadi. Odam hamisha o‘z mehnatlari, mashaqqatlari evaziga beriladigan eng katta mukofot aslida shu emasmi?

Aka- uka Grimmlarning ushbu ertagini maktabda o‘tish jarayonida bir qancha usullardan foydalanish mumkin. Jumladan, quyidagi “Muzyorar” usuli.

#### «MUZYORAR» USULLARI



→

<sup>9</sup> M. Jumaboyev. Bolalar adabiyoti darsligi. –T.: “O‘qituvchi” nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2013.

## II BOB. O‘ZBEK BOLALAR ADABIYOTI YOZUVCHILARI

### HAYOTI VA IJODINI O‘RGATISH

#### *2.1. Anvar Obidjon she‘rlari- bolalar qalbi , ruhining yorqin ko‘zgusi*

Anvar Obidjon 1947 - yilda Farg‘ona viloyatining Oltiariq tumanidagi so‘lim qishloqlarning biri – Polosonda tug‘ilgan, beg‘ubor bolaligi shu joyda o‘tgan. Qalbida hayotga, insonlarga, ona tabiatga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ulari aynan o‘sha maskanda uyg‘ongan, ilk she‘riy satrlari ham shu qishloqda yaratilgan.

Ko‘plab hikoyalar, qissalar, sahna asarlari yaratdi. Bu yillarda uning «Ey, yorug‘ dunyo» (1983), «Olovjon va uning do‘stlar» (1983), «Ketmagil» (1985), «Bezgakshamol» (1985), «Masxaraboz bola» (1986), «Akanq qarag‘ay Gulmat» (1987), «Juda qiziq voqea» (1987), «Oltin yurakli Avtobola» (1988), «Dahshatli meshpolvon» (1989), «Erliklar» (1990), «Alamazon va Gulmat hangomalari» (1992), «Ajoyibxona» (1993), «Meshpolvonning janglari» (1994), «Alisher ila Husayn yoki uch donov a o‘g‘ri» (1996), «Alamazon va Gulmat» (1998), «Oltiariq hangomalari» (1999), «Bulbulning Cho‘pchaklari» (2001).

Dars “Ifodali o‘qish daqiqasi” bilan boshlanadi. O‘tgan darsda o‘tilgan Anvar Obidjonning hayoti va ijodi haqida ma‘lumot o‘quvchilarga ifodali yod aytiriladi.

Keyin o‘tgan mavzu “Mozaika” ta‘limiy usuli orqali mustahkamlanadi. O‘quvchilar Anvar Obidjonning hayoti va ijodi haqida nechog‘lik o‘rganganlari tekshiriladi. Har bir guruhga Anvar Obidjonning hayoti va ijodi haqida ikkita ma‘lumotdan har bir so‘zi qirqilgan qog‘oz tarqatiladi. O‘quvchilar 5 daqiqada so‘zlarni o‘z holiga keltirishi kerak.

Anvar Obidjon asarlarining mavzu va mazmuni rang-barang, badiiy obraz yaratish usullari xilma-xil. Bolalar tabiatini nozik his etishi juda aniq seziladi.

U o‘z asarlarini qanday shaklda, qaysi janrda yozishidan qat’iy nazar, bolalarning «kulgiga o‘ch xalq» ekanligini hech qachon unutmaydi.

Shoirning o‘zbek bolalar adabiyotiga olib kirgan yangiliklaridan yana biri -kichkintoylar uchun aruz vaznida asarlar yaratish an’anasini davom ettirdi. Ma’lumki, bizning mumtoz adabiyotimizda aruz yetakchi vazndir. Undagi katta-kichik asarlarning, deyarli, hammasi aruzda yozilgan. Bunday asarlar orasida bolalar uchun maxsus yozilganlari ham ko‘p. Masalan, Hamza

Hakimzoda Niyoziyning pedagogik risolalaridan joy olgan she’riy<sup>10</sup> asarlarning ko‘pchiligi aruz vaznida yozilgan. «Qalam», «Kitob», «Ilm», «Maktabdan» radifli asarlari shular jumlasidandir. Sobiq «Sho‘rolar» davrida aruzga noto‘g‘ri munosabatda bo‘lindi. Hatto uni qoralashdi. Lekin shoirlarimizning bu gaplarning butunlay noto‘g‘riligini o‘zlarining aruzda yozgan nafis asarlari bilan isbotladilar. Aruz boshqa vaznlar bilan birga hamon o‘z hayotini davom ettirmoqda.

**Yangi mavzuni mustahkamlash uchun o‘quvchilarga “Detektiv” usulidan foydalanib savollar beriladi.**

**“Bilimdon” guruhiga: Anvar Obidjonning 1979- yilda yozgan kichikkina she’rida qanday mazmun ifodalaydi:**

Shamol guvlayveradi,  
Qushlar sayrayveradi,  
Daryolar shovullayveradi.  
Baliq esa,  
Hech qachon gapirmaydi.  
Men baliq emasman.<sup>11</sup>

**O‘quvchilar she’rni ifodali o‘qib savolning javobini topishga harakat qiladilar:**

---

<sup>10</sup> Anvar Obidjon. O‘g‘irlangan pahlavon. -T.: «Cho‘lpon» 2006, 6-bet.

<sup>11</sup> Anvar Obidjon. Tanlangan she’rlar. 2- kitob. –T.: “Sharq”, 2014.

Anvar Obidjonning qariyb oltmish yillik ijodiga nazar tashlasak, unda ona Vatan taqdiri bosh mavzu sifatida bo‘rtib ko‘rinishiga guvoh bo‘lamiz. Bu mavzu esa o‘z ichiga ko‘p qadriyatlarni jamlaydi.

**“Topqirlar” guruhiga:**

Rasvo bo‘lgan nomus- or uchun,  
Jangda o‘lgan do‘st uchun yig‘lang.  
Yov toptagan gul diyor uchun,  
Taqiqlagan so‘z uchun yig‘lang.  
Qolgan dardlar- charxning hazili.

**O‘quvchilar vaqt tugashi bilan savolga javob berishi kerak.**

Xuddi o‘sha yili bitilgan she‘rda tasvirlangan manzarada esa millionlab o‘zbek o‘quvchisi o‘z yurtini, o‘z ahvolini ko‘rgani shubhasiz.

Shukrki, 1991- yilda xalqimiz hurriyatga- milliy mustaqilikka erishdi. 130-yildan ortiq davom etgan qullikdan, mutelikdan xalos bo‘ldi. Odamlarning ruhiyatida, kayfiyatida, dunyoqarashida tub o‘zgarishlar yuzaga qalqib chiqdi. Endi odamlar kim uchundir emas, o‘zi va farzandlari uchu mehnat qilayotganini, bu mehnatdan keladigan samara Vatani ravnaqiga xizmat qilishni yaxshi biladi.

**Savollarga javoblar hisoblanib olinadi va o‘qituvchi tomonidan darslikda berilgan she‘rlar tahlili o‘tkaziladi. (5 daqiqa)**

Shoirning “Hayotning har lahzasi go‘zal” she‘ri xalqimiz ruhiyatidagi mana shu yangilashni birgina kun- erta tongdan quyosh botguncha qadar kuzatiladigan lavhalarda nihoyatda jonli aks ettiradi.

Masalan, siz bilan biz ko‘cha bo‘ylarida, xiyobonlarda deyarli har bir kun ko‘zimiz tushadigan gullarni mana bu tarzda ko‘rsatish- ifoda qilish faqat shoirning qo‘lidan keladi- da:

Kelinchakdek bo‘lib orasta,  
Gul salomdan ko‘taradi bosh.

Xalqimizning qon- qoniga yurtdoshlik, vatabdoshlik tuyg‘usi singib ketgan. Dunyoning qay chetida bo‘lmasin, ikki o‘zbekistonlik ko‘rishib qolsa, har

ikkisining yuragi quvonchdan yayrab ketadi. Holbuki, bu odamlar oldin hech qachon ko‘rishmaganlar, bir- birlarini tanimaydi. Bir muddat diydorlashgach, keyin yana umrbod boshqa ko‘rishmaslar ham...

Shoir mana shu tuyg‘uni xorijlarda emas, o‘z yurtida, har kungi oddiy hayotda ham yurakdan chuqur tuyadi va o‘quvchilarni ham shunday tuyg‘u bilan yashashga undaydi:

Duch keladi yuzlab chehralar;  
Ko‘pin qaytib ko‘rmoqlik mahol.  
Ular dilga yaqin naqadar,  
Shuning o‘zi tugamas iqbol.

Bu she‘rning har bandi oxirida takrorlanib keladigan misralar o‘quvchi yodiga bir umr muhrlanib qolishining sababi esa, ularda aks etgan shoir samimiyatidan, qalbidagi ezgulikdandir: “Hayotning har lahzasi go‘zal, Umrning har dami g‘animat”

Shoirning bu she‘ri quyoshning chiqib kelish tasviri juda ajoyib tasvirlanishi bilan boshlanadi. Hamda bu tasvir ostida milliylik ham o‘z ifodasini topadi. Ertalab kelinchakning hovlilarni supurib hamma yerni orasta qilishi, gulning ochilishi, xalqning yangi kunni kutib olib o‘z ishiga sho‘ng‘ishi , dasturxonga qaymoq, issiqqina kulchalarning tortilishi go‘zal tarzda aks ettirilgan:

Tun pardasi ochilar asta,  
Chiqib kelar sahnaga quyosh,  
Kelinchakdek bo‘lib orasta,  
Gul salomdan ko‘taradi bosh.  
Hovli go‘yo yuvilgan chinni,  
Yo‘llar go‘yo artilgan oynak,  
Qutlash uchun yangi bu kunni,  
El oyoqqa turar jonsarak.  
Hayotning har lahzasi go‘zal,  
Umrning har dami g‘animat.



Keyingi baytlarda ham shoir hayotning har dami aziz va mukarram ekanligi, uning har soniyasini qadrlash lozimligini ta’kidlab:

Bir mahallar berishgan salom,  
Endi esa olishar alik,  
Tillarida duo, xush kalom,  
Saodatdir hatto keksalik.  
Kulib turgan munchoqko‘z bola,  
Eslatadi “tinchlik” so‘zini.  
Sochlaringdan erib oq tola  
Intilasan yana oldinga...

Insonning yoshligi abadiy emasligi haqiqat. Yoshlik navqironlik o‘tib nuroniy yoshga yetish ham katta baxtdir. Chunki bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor. Keksalarimizning yurtimizda naqadar e’zozlanishi, ularni hurmat qilish milliy qadriyat darajasida ekanligi ham faxrlanarli holatdir. Buning hammasi mustaqilligimizning sharofati bilan bo‘layotgani ham haqiqat. Bu holatni tasvirlashda shoir: Kulib turgan munchoqko‘z bolaning ko‘zlarida ham ko‘rganini aytadi.

She’r tahlil qilinib bo‘lgach, so‘ngra “Assisment texnologiyasi”dan foydalanamiz. Guruhlarga bittadan tarqatma beriladi. O‘quvchilar tarqatmaga javob yozadilar.

“Bilimdonlar” guruhiga:

<b>TEST</b>	<b>Savol</b>
A. Obidjon she`rlari berilgan qatorni toping. A.”Nido”, ”Orzu chashmasi”, “Quyosh maskani” B.”Tong lavhasi”, ”Buloq”, “Sevgi”	“Bahromning hikoyalari” she’rida tovuqning laqabi qanday edi?  _____

<b>TEST</b>	<b>SAVOL</b>
<p>A.Obidjon dostonlari berilgan qatorni Belgilang.</p> <p>A.”Nido”,”Orzu chashmasi”,”Quyosh maskani”</p> <p>B.”Tong lavhasi”,”Buloq”, “Sevgi”</p> <p>C. “Ruhlar isyoni”, “Buloq”, “Sevgi”</p> <p>D. “Vatanjon”, “Tinch kunlar”, “Avtoqishloq”</p>	<p>A.Obidjon qaysi viloyatda tugʻilgan?</p> <hr/>

<p>C.”Ruhlar isyoni”,”Buloq”, “Sevgi”</p> <p>D. “Vatanjon”, “Tinch kunlar”, “Avtoqishloq”</p>	<hr/>
<p>She’riy misrani davom ettiring.</p> <p>Avtoqishloq quribdi</p> <hr/>	<p>Og‘aynimiz Temirjon</p> <hr/>
<p>“Topqirlar” guruhiga</p>	

She'riy misrani davom ettiring. Tun pardasi ochilar asta	Chiqib kelar sahnaga quyosh
---	-----------------------------

“Uddaburon” guruhiga:

<b>TEST</b>	<b>SAVOL</b>
A.Obidjon she'rlarini toping. A.”Nido”,”Orzu chashmasi”,”Quyosh maskani” B.”Oltin devor”, “Istanbul fojiasi” C.”Ruhlar isyoni”, “Tong lavhasi” D. “Vatanjon”, “Tinch kunlar”, “Avtoqishloq”	A.Obidjon qanday unvonlar bilan taqdirlangan?
She'riy misrani davom ettiring. Balodan asray deb tumor bo'laman	Noming ulug'lovchi shior bo'laman.

O'quvchilar ushbu usulni oldin yozma bajaradilar. So'ngra guruh sardori o'qib beradi. Guruhlar rag'batlantiriladi. Darsni kuzatib borgan maktab o'qituvchilari o'z fikr- mulohazalarini bildiradilar.<sup>12</sup>

#### IV. Mustahkamlash:

Anvar Obidjon she'rlari bo'yicha o'quvchilarning bilimini mustahkamlash maqsadida „Raqamlarda savol bor” metodi qo'llaniladi. O'quvchilar raqamlar yozilgan tarqatmalarni olishadi. Ixtiyoriy bir raqamni aytadilar va monitorda raqamlarda yashiringan savollar chiqadi.

<sup>12</sup> Amudaryo tumani 85- son maktabning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari O'. G'ofurov, o'qituvchilar M. Yusupova, M. Erjanova, N. To'raboyevalar ochiq dars bo'yicha muhokama olib borishdi.

	1		2		3		4	
5		6		7		8		9

O'qituvchi monitor orqali quyidagi savollarni ko'rsatadi. O'quvchilar savollarga javob beradi va o'z fikrini bayon qiladi.

V.G'olib guruh aniqlanadi. O'quvchilar baholanadi.

VI. Uyga vazifa: Darslikdagi savol va topshiriqlarga tayyorlanib kelish ,she'rlardan parcha yod olib kelish. Dars yakunlanadi.



## ***2.2. Xudoyberdi To'xtaboyev bolalar adabiyotining yirik vakili***

O'quv rejasida 6- sinfning I choragida 9-dars- X.To'xtaboyev hayoti va ijodi. "Sariq devni minib" romani mavzusiga bag'ishlangan. Hamda yana bir soat nazariy ma'lumot: Sarguzasht asar mavzusi ham berilgan. 10-darsda bir soat

“Sariq devni minib” asarini o‘qish va 11-12-darslar “Sariq devni minib” matni va timsollari ustida ishlashga ikki soat ajratilgan.<sup>13</sup>

Xudoyberdi To‘xtaboyev katta-yu kichik bolalarning suyuqli adibi. U hozirgi zamon o‘zbek bolalar adabiyotida sarguzasht va fantastik janrlarining rivojlanishiga katta hissa qo‘shib kelayotgan iste’dodli adib sifatida kitobxonga ma’lum va mashhurdir. Yozuvchi 1932- yilning 17-dekabrda Farg‘ona viloyatining O‘zbekiston tumaniga qarashli Katta Tagob qishlog‘ida dehqon oilasida dunyoga keldi. Boshqa bolalar qatori Xudoyberdi To‘xtaboyev ham poda boqdi, yer chopdi, paxta terdi, xullas qishloqda bo‘ladigan hamma sohalarda qo‘lidan kelganicha mehnat qildi. Hayot nimadan iborat ekanligini yoshligidanoq bila boshladi.

X. To‘xtaboyev bolalikdan to‘g‘ri so‘z, halol, pok va mehnatsevar bo‘lib o‘sdi. Gazetada ishlar ekan, ba’zi nopok odamlarni ko‘rib, ularning qilmishlarini hazm qila olmadi. Bunday kishilarning sir-asrorlarini fosh etishga, el-yurt o‘rtasida munofiqarning yaramas tomonlarini ochib tashlashga qaror qildi. Bu borada unga felyeton janri qo‘l keldi. 1962- yilda respublikamizning otaxon gazetasi – “O‘zbekiston ovozi”ga felyetonchi bo‘lib ishga o‘tdi. Bu yerda 300 dan ziyod felyeton yozdi.

“Hadik”, “Tilxat”, “Ona”, “Xarakteristika”, “Barvaqt aytilgan azon”, “Domlaning uyiga o‘t ketdi”, “Maxsus topshiriq”, “Jonginam, shartingni ayt” kabi kattalar uchun qissa va hikoyalar yozgan Xudoyberdi To‘xtaboyev bolalar uchun ham hikoyalar yarata boshladi. Uning “Birinci daraxtim”, “Qochoqlar”, “Qizg‘anchiq”, “Dadajon, yozmang”, “Kelvordim, dada”, “Vali bilan Salim”, “Shoshqaloq”, “Yaxshi-yaxshi” singari o‘nlab hikoyalari yosh kitobxonlarda katta qiziqish uyg‘otdi.

Xudoyberdi To‘xtaboyevda yozuvchilikka ishtiyoq uyg‘otgan, qobiliyatining shakllanishida muhim rol o‘ynagan, asarlariga qaytarilmas rang va jilo bergan

---

<sup>13</sup> 2020-2021- o‘quv yili uchun 6- sinf adabiyot fanidan o‘quv- taqvim rejasi.

narsa hayot, vaqtli matbuot, tahririyatdagi qaynoq ijodiy muhit va qunt, chidam bilan o'qish, o'rganish, o'z ustida ishlash bo'ldi.

Xudoyberdi To'xtaboyev uzoq yillar felyetonchi bo'lib ishlab, kishilarning yurak dardini, hasratini qunt bilan o'rgandi. Bunday shikoyatlarga sabab bo'layotgan shaxslarning xatti-harakatlarini mufassal bilib olishga intildi. Davrdan orqada qolgan, sarqit deb atalgan illatlar botqog'iga botgan, mol-u dunyoga hirs qo'ygan shaxslar haqida talay feletonlar yozdi. "Sariq devni minib", "Sariq devning o'limi" nomli asarlari ana shu dalillarni umumlashtirish asosida yuzaga kelgan, desak to'g'ri bo'ladi.

Demak, ushbu yozuvchining hayoti va ijodi hamda "Sariq devni minib" asaridan parchani o'qish darsini boshlaymiz.

### **I. Tashkiliy qism: ( 5 daqiqa)**

- 1) Salomlashiladi;
- 2) Davomatni aniqlash
- 3) Diqqatni jamlash

### **II. O' tilgan mavzuni mustahkamlash (10 daqiqa)**



X.To'xtaboyev hayoti va ijodi, "Sariq devni minib" asari o'quvchilardan so'raladi va baholanadi.

#### ***Takrorlash uchun savollar:***

- 1. Bolalar yozuvchisi X.To'xtaboyev haqida nimalarni bilasiz?*
- 2. Yozuvchining qanday asarlarini o'qigansiz?*
- 3. X.To'xtaboyev nega bolalar yozuvchisi hisoblanadi?*
- 4. Bolalar hayoti bilan bog'liq qanday sarguzasht asarlarni bilasiz?*

### III. Yangi mavzu bayoni (10 daqiqa)

Xudoyberdi To‘xtaboyev asar yozayotgan paytda, albatta, o‘z o‘quvchisini ko‘z oldiga keltirib yozadi. “Olti yoshli bolaga aytayotgan gapingiz o‘n to‘rt yoshli o‘smirga aytadigan gapingizdan, albatta, farq qilishi kerak” deb ta’kidlaydi.<sup>14</sup>

“Sariq devni minib”da o‘qish, ilm cho‘qqilarini egallash uchun va insonning o‘z orzusi, ezgu niyatiga erishish uchun barcha imkoniyatlarni yaratib bergan zamonimizda yashashiga qaramay, dangasalik, yalqovlik qilgan, hayotda yyengil-yelpi yo‘l axtargan va adashgan bolalar – Hoshimjonlar kulgi ostiga olinadi:

Hoshimjon dehqon oilasidan chiqqan, sho‘xligi olamni buzadigan bir bola. U hayotidagi ko‘p narsaga mehnatsiz, qiyinchiliklarsiz oson yo‘l bilan erishgisi keladi. Mehnatsiz va ilmsiz ham kishi istagan narsaga erisha olishi, katta obro‘ orttirishi mumkin, deb o‘ylaydi. O‘z fikrida qat’iy turgan Hoshimjon muddaosini amalga oshirish uchun buvisi aytib bergan ertakdagi sehrli qalpoqchani izlashga tushadi. Uzoq izlanishlardan keyin istagan ishini hech qanday mashaqqatsiz bajarishga yordam beradigan sehrli qalpoqchani tashlandiq molxonadan topib oladi. Endi u o‘zini orzulariga batamom erishadiganday his etadi. “Ortiqcha” fanlarni dars jadvalidan chiqarishni rad etgan direktor, har xil vazifalar berib “miyasini qotiradigan” o‘qituvchilariga o‘qimasdan ham har qanday kasb egasi, mashhur odam bo‘la olish, ko‘krak to‘la ordenlar bilan shon-shuhratlar, katta obro‘ga ega bo‘lish mumkinligini ko‘rsatib qo‘ymoqchi bo‘ladi va shu maqsadda sehrli qalpoqcha bilan safarga chiqadi. Shunday qilib, uning sarguzashtlari boshlanadi.

Ming afsuski, sehrli qalpoqcha bu borada Hoshimjonga ko‘mak bera olmaydi. Sehrli qalpoqcha muhayyo etgan imkoniyatlar har safar kutilmagan ko‘ngilsiz oqibatlarga olib kelaveradi. Hoshimjonning baxti endi kulay deb turganda ishning pachavasi chiqib qolaveradi. U davlat xo‘jaligida agronom bo‘lib ham, “shoirlik” qilib ham, qurilishda muhandislik qilib ham, qo‘g‘irchoq teatrida artistlik qilib ham ko‘radi, mashhur sayohatchi sifatida butun dunyoni kezmoqchi ham bo‘ladi. Lekin

---

<sup>14</sup> X. To‘xtaboyev. Sariq devni minib. –T.: “Sharq”, 2013.

hamma yerda ilmning, tajribasining yoʻqligi ishning pachavasini chiqaraveradi. Hoshimjon qayerga bormasin, qanday ish qilmasin pirovardida sharmanda-yu sharmisor boʻladi. Uning agronomlik va muhandislik “faoliyati” jinoyatga olib keladi, qamalishiga oz qoladi, shoir boʻlaman deb rasvo boʻladi, “ulugʻ artist” teatrdan quviladi.



X.Toʻxtaboyevning “Sariq devni minib” asari 1968-yilda yozilgan. Adibning «Sariq devni minib» va uning mantiqiy davomi boʻlgan «Sariq devning oʻlimi» romanlari nafaqat oʻzbek adabiyoti, balki jahon adabiyoti koʻlamida ham bolalar uchun yaratilgan sarguzasht asarlarning eng yaxshi namunasiga aylandi. Bu romanlarda 6-sinf oʻquvchisi Hoshimjonning ajoyib sarguzashtlari, uning sehrli qalpoqcha yordamida erishgan qahramonliklari qiziqarli tarzda hikoya qilinadi.

Asardagi hamma voqealar Hoshimjonning xatti-harakati, qarashlari, feʼl-atvori ochilishiga yoʻnaltirilgan. Bir qaraganda uning harakatlari, qilmishlari tartibsiz, pala-partishday tuyuladi-yu, ammo asl gʻoyani ochishga qaratilgan. Bu gʻoya oʻqimasdan, chuqur bilim olmasdan zamonning haqiqiy kishisi boʻlish mumkin emas, degan fikr juda koʻp misollar, voqealar, sarguzashtlar orqali isbot etiladi.

Baʼzi bir yoshlarda kuch va qobiliyatga ortiqcha baho berish, oʻz imkoniyati bilan hisoblashmasdan manmanlik koʻchasiga kirib ketish, haqiqiy hayot talablarini hisobga ola bilmaslik hollari uchrab turadi. X.Toʻxtaboyev bu asarda



ana shunday yoshlarga munosabat bildiradi. Shuning uchun ham bu asar tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Hayotda yaxshi kasb egasi bo'lish uchun, bilim olish, zahmat chekib kasb o'rganish lozim, mehnat qilmay ilm o'rganmay turib shon-shuhratga ham, obro' - e'tiborga ham erishib bo'lmayligini Hoshimjon misolida ko'rsatib bergan.

Hoshimjon turli kasblarni egallashga harakat qiladi. Ularni bir qadar egallaydi ham, biroq bilimsizligi, tajribasizligi tufayli pand yeydi. Biror bir maqsadga erishish uchun sehrli qalpoqchadan tashqari, bilim ham kerakligini unutib qo'yadi. Shuning uchun ham qaysi kasbga qo'l urmasin ishi chappasiga ketadi. Agar siz «Sariq devni minib», «Sariq devning o'limi» romanlarini to'liq o'qib chiqsangiz sehrli qalpoqcha tufayli turli mutaxassisliklarni egallagan Hoshimjon har safar chuv tushishi sabablarini bilib olasiz.

Xudoyberdi To'xtaboyevning «Sariq devni minib» asari ko'pgina jahon xalqlari tillariga - jami 24 tilga tarjima qilingan, italiyalik buyuk bolalar yozuvchisi Janni Rodarining tahsiniga sazovor bo'lgan.

#### **IV.Mavzuni mustahkamlash (15 daqiqa)**

Yozuvchi Hoshimjon obrazini butun qirralari bilan ochishga uringan. Bolalarga xos o'yinqaroqlik ham, soddalig-u beg'uborlik ham, g'ururlik, to'g'ri so'zlik, shumlik, biroz maqtanchoqlik, hatto o'rnida yolg'onni ham do'ndirib yuboradigan, o'zini boshqalardan ajratib ko'rsatishga intilish odatlari, bolalarga taqlidchilik, dovyurak, epchil va ruhiy tetiklik, xafachilik va ruhiy tushkunlikdan yiroqlik Hoshimjon xulq-atvoriga xos xususiyatdir.

Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devning o'limi" sarguzasht romani uch qism ("O'rtoq polkovnik", "Sariq devni minib", "Sariq devning o'limi yoki olam guliston bo'lgani")dan iborat. Bu roman asosida ham Hoshimjon sarguzashtlari yotadi. Kitobni o'qib uning yangi sarguzashtlaridan xabardor bo'lasiz, sehrli qalpoqcha yana madadga keladi, ajoyib-g'aroyib karomatlar ko'rsatadi. U Hoshimjonga jiddiy masalalarda – o'g'ri, muttaham, tekinxo'rlarni fosh etishda yordam beradi.

Endilikda, Hoshimjon avvalgi o‘yinqaroq Hoshimjon emas, balki to‘qqiz yillik maktabni bitirib, ulg‘ayib, birmuncha quyulib, esi kirib, oq-qorani tanib qolgan yigitcha. Endi u o‘z taqdiri, jamiyatga foyda yetkazadigan odam bo‘lib yetishishi haqida jiddiy o‘ylaydi, biror kasb egallash haqida bosh qotiradi. Boshda satarosh bo‘ladi. “Bilasiz-ku, bir ishga ahd qilsam, uni oxiriga yetkazmagunimcha qo‘ymaydigan odatim bor. Jonimni qiynab bo‘lsa ham maqsadimga erishaman”, deb shu kasb orqali odamlarga xizmat qilishga bel bog‘laydi. Keyin militsiya maktabiga kirib o‘qib, uni bitirgandan so‘ng militsionerlikka ishga o‘tadi. Kitobdagi barcha voqea-hodisalar, sarguzashtlar Hoshimjonning ana shu militsionerlik nuqtasidan boshlanadi, hamma gap-so‘zlar qahramonning shu kasb-kori bilan bog‘liq holda davom etadi.

Romanda yaxshilik, ezgulik ramzi sifatida militsiya polkovnigi Salimjon, uning madadkori Hoshimjon, yomonlik, eskilik ramzi tarzida Odil battol gavdalanadi.

Ular o‘rtasida tinimsiz shiddatli kurash ketadi. Odil nihoyatda makkor. U Salimjonning boshiga juda ko‘p og‘ir savdolar solgan, uyiga o‘t qo‘ygan, uning yakka-yu yolg‘iz farzandining qo‘liga to‘pponcha tutqazgan, jinoyatga yetaklagan.

Asar pirovardida butun umri xalqqa, yaxshi odamlarga zarar yetkazish bilan shug‘ullangan Odil battol va uning hamtovoqlari qonuniy mag‘lubiyatga uchraydi, haqiqat, adolat, ezgulik g‘olib chiqadi.

Xudoyberdi To‘xtaboyev o‘z romanida yulg‘ichlarga, qalloblarga qarshi kurashda butun xalq bir kishiday bo‘lib birlashsa, bu ishni butunlay o‘z qo‘liga olsa, Odil battollarga qiron keladi, ulardan nom-nishon ham qolmaydi, degan fikrni o‘rtaga tashlaydi.

“Sariq devni minib” qissasi, “Sariq devning o‘limi” romanining eng yaxshi fazilatlaridan biri tilining shiradorligi va o‘ynoqiligidadir. Muallif bosh qahramon Hoshimjonning tilini alohida e‘tibor bilan ishlagan. Bu til nozik qochirimga boyligi va jonliligi, shu bilan birga, bolalar tiliga mos holda soddaligi bilan ajralib turadi. Qahramonning xarakteri uning so‘zlaridan shundoqqina bilinib turadi.

Fantastik-sarguzasht janri bolalar adabiyotining eng qiziqarli janrlaridan biridir. Bunday asarlar bolalarning ongi va psixologiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi, ularni o'qishga, o'rganishga, izlanishga o'rgatadi, jamiyatimizning faol quruvchilarini tarbiyalashga yordam beradi.

### ***Mustahkamlash uchun savollar:***

- 1. Mazkur asar sizda qanay taasurot qoldirdi?*
- 2. Hoshimjon dastlab qalpoqni qayerda va qanday sinadi?*
- 3. Hoshimjonning agronomlik "faoliyati" ni qanday baholaysiz?*
- 4. Asarda yana qanday qahramonlar bor?*
- 5. Hoshimjon shuhrat va omad izlab uyidan chiqib ketgandi. Nega maqsadiga erisha olmaydi?*
- 6. Hoshimjon va Qoravoy ya'ni shum bolaning o'xshashi va farqi tomonlari nimada?*
- 7. Hoshimjon rolini ijro qilib bering.*

### **V. Xulosa.**

O'quvchilar fikri umumlashtiriladi. Hoshimjonning xatti-harakatidagi ijobiy va salbiy jihatlar slaydda namoyish etiladi



***Hoshimjon***

<b><i>Ijobiy</i></b>	<b><i>Salbiy</i></b>
<b><i>Haqqo'y</i></b>	<b><i>Yolg'onchi</i></b>
<b><i>Mehribon</i></b>	<b><i>Maqtanchoq</i></b>
<b><i>Romantik</i></b>	<b><i>Manman</i></b>
<b><i>Soddadil</i></b>	<b><i>Bilimsiz</i></b>
<b><i>Yaxshilikka intiluvchi</i></b>	<b><i>dangasa</i></b>
<b><i>Xato ishlaridan afsuslanish</i></b>	

Monitorida "Sehrlı qalpoqcha" filmidan lavha ko'rsatiladi va yakuniy xulosa aytiladi.



Demak, aziz o‘quvchilar, bilim olishning ahamiyati juda katta ekan. Har bir inson ilm olishga, kasb egallashga intilishi, o‘z oldiga qo‘ygan ezgu maqsadlar ssari olg‘ a intilishi lozim. Zero, ota-bobolarimiz “Beshikdan qabrgacha ilm izla” deb bejizga aytishmagan. Quyida bilimning va bilimsizlikning natijasini kuzatamiz:

<i>Bilim</i>	<i>Bilimsiz</i>
<i>Omad</i>	<i>Omadsizlik</i>
<i>Davlat</i>	<i>Muxtojlik</i>
<i>Hurmat</i>	<i>Behurmat</i>
<i>Shuhrat</i>	<i>Qo‘rqoq</i>
<i>Yengilmaslik</i>	<i>Pand yeyih</i>
<i>Kasb egasi</i>	<i>Hunarsiz</i>
<i>Maqsadga erishish</i>	<i>Qoloqlik</i>

Qissada Hoshimjon o‘z sayohati davomida qanchadan qancha ajoyibotlarning guvohi bo‘lib, qiziq, kulgili sarguzashtlarni boshidan kechiradi. U o‘qimay, mehnat qilmay, o‘z ustida ishlamay juda ko‘p narsalarga erishmoqchi bo‘ladi, lekin hech narsaga erisha olmaydi. Chunki unga ilmsizligi pand beradi. Demak, biz hech qachon yalqovlik, dangasalik qilmasdan ko‘proq kitob o‘qishimiz lozim ekan.

**VI. O‘quvchilarni rag‘batlantirish. ( 3 daqiqa).** Dars davomida faol qatnashgan o‘quvchilar “T” texnologiyasi asosida baholanadi.

**VII. Uyga vazifa. ( 2 daqiqa)**

“Bilimsizlik pand beradi” mavzusida matn tuzib kelishni berish mumkin.

### III BOB. BOLALAR YOZUVCHILARI HAYOTI VA IJODINI O‘QITISH METODIKASI

#### *3.1. Bolalar yozuvchilari hayoti va ijodini o‘qitish metodikasi bo‘yicha taklif va mulohazalar*

Mamlakatimizda demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish maqsad qilingan va amalga oshirilayotgan ekan, bu jarayonda yoshlarning o‘rni va ro‘li alohida ahamiyatga ega. Zero, yoshlar bizning kelajagimiz, avlodlardan meros qolgan muqaddas zaminni yuksaltirish, ilg‘or davlatlar darajasiga ko‘tarish ularning bilimi, istedodi, jasorati, ma‘naviy barkamolligiga bog‘liq. Shuning uchun ham o‘zining barcha asarlari va ma‘ruzalarida yoshlar tarbiyasini markaziy o‘ringa qo‘yish bilan uni davlat siyosati darajasiga ko‘tarishga erishgan Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov shunday yozgan edi: „Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo‘lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va, albatta, baxtli bo‘lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etyotgan ekanmiz, bu borada ma‘naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi“.<sup>15</sup> Albatta, bugungi kun o‘qituvchisi **yangilikka intiluvchan, uni to‘g‘ri qabul qilib o‘z o‘quvchisiga yuksak darajada yetkaza olishi** zarurdir. Darslarni yuqori darajada tashkil qilish va o‘tkazish uchun avvalo o‘qituvchining o‘zi pedagogik jihatdan mahoratga ega bo‘lishi zarur. Shundagina bunday o‘qituvchi yosh avlodni har jihatdan yetuk va barkamol inson qilib tarbiyalay oladi.

1. Ta‘lim tizimida hayotga tadbiiq etilayotgan islohatlarning barchasi tub mazmun-mohiyati bilan yoshlarimizning yurt ravnaqi uchun fidoiy, izlanuvchan bo‘lib yetishmog‘iga qaratilgan.

2. Bugungi kun ta‘limida o‘quvchilarda ijodiy munosabatni shakllantirishga, ta‘lim samaradorligini oshirishga, o‘quvchilarda ijodiy firklash malakalarini rivojlantirishga alohida e‘tibor berilmoqda. Shu bilan birga boshqa mamlakatlardagi ta‘lim texnologiyalarini va ularning tajribalarini o‘rganish va mos

tomonlarini tadbiq etish jarayoni ham jadal rivojlanib bormoqda. Adabiyot ta'limida qo'llanilayotgan **xorijiy tajribalar** modulli tizim, case study, masofali o'qitish, mahorat darslari, vebinar kabi yangi texnologiya va metodlar bilan boyimoqda.

O'qitish jarayoniga yangi ta'lim texnologiyalarini kiritib, **noan'anaviy ta'lim usullaridan:** „Konferensiya darsi“, „Seminar darsi“, „Aralash darslar“, „O'yinchoqlar yordamida dars o'tish“, „Kasbga bog'lab dars o'tish“, „Badiiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish“, „Evrika“ („O'ylab top“); **ta'limning qiziqarli faol usullaridan:** „Kichik va katta guruhlarda ishlash“, „Rolli o'yinlar“, „Sahna ko'rinishi“, „Krossvordlar yechish“, „Zakovat savollari“, „Test-sinov topshiriqlari“, „Turli tarqatma materiallardan foydalanib dars o'tish“, „Sinkveyn o'yinlari“; **shuningdek, ta'limning innovatsion (yangi) usullari:** „Improvizatsiya“, „Aqliy hujum“, „Debat“, „Tanqidiy fikrlash“, „Klaster usuli“, „Muammoli vaziyat“, „Muayyan holat, vaziyatni o'rganish, tahlil qilish“, „Har kim har kimga o'rgatadi“, „Nuqtayi nazaring bo'lsin“, „Multimediya“ va boshqalarni qo'llashi muhimdir“.<sup>16</sup>

### **„Tanqidiy fikrlash“ metodi**

„Tanqidiy fikrlash“ metodi o'rtaga tashlangan masala yoki muammo yuzasidan fikr aytish, o'zgalarning fikrlarini tanqidiy idrok etish, o'z nuqtayi nazarini asoslab berish va saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'lishga asoslangandir. Bunday usuldan bahs-munozara xususiyatiga ega bo'lgan masalalar muhokamasida foydalanish mumkin.

Bu usulni qo'llashdan maqsad: o'quvchilarda tinglash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish, turlicha qarashlar va nuqtayi nazarlarni muhokama qilish, tahliliy mushohada yuritish va fikrlash qobiliyatini oshirish, o'z dunyoqarashini, nuqtayi nazarini, fikrini shakllantirish, fikrini bayon etish mahoratini takomillashtirish imkonini beradi.

---

<sup>15</sup> Karimov. I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.- T.: 2008-yil, 4- b.

<sup>16</sup> Ibragimova M., Shermatova H. Ta'lim jarayonida faol usullarni qo'llash. Uzluksiz ta'lim. Toshkent, 2005. 5- son, 16-17- betlar.

Hozirgi kunda Word, Excel, PowerPoint dasturlari fan o'qituvchilarining kundalik qurollariga aylanib ulgurdi. Ta'lim sohasiga kirib kelgan yangiliklardan yana biri bu – PowerPoint dasturida iSpring, easyQuizzy, Google Classroom ilovalarining paydo bo'lishidir. Ushbu ilovalar har xil animatsiyalar yaratishga, interfaol testlar tuzishga imkon beradi. Testlarning savollari va javoblariga turli rasm, sxema va formulalarni birlashtirish mumkin. Har bir shakl muayyan didaktik ahamiyatga ega. Misol uchun „To'g' ri / noto'g' ri” „Bitta to'g' ri javobli yopiq test”, „Bir necha to'g' ri javobli yopiq test”, „Matn kiritiladigan ochiq test”, „Moslikni aniqlash testi”, „Tartibga keltirish testi” „Son kiritiladigan ochiq test” kabi turlari mavjud.

Google Classroom– masofaviy ta'lim olish uchun o'quv darslariga mo'ljallangan dastur. Maktab va o'qituvchilarga sinf a'zolari bilan xavfsiz muhitda bo'lish hamda muloqot qilish uchun virtual sinflarni yaratish imkonini beradi. Buning uchun foydalanuvchi Google hisob (gmail)ga ega bo'lishi talab etiladi. O'qituvchi sinflar yaratishi yoki ular uchun ajratilgan ommaviy guruhlariga ega bo'lishi shart. So'ngra o'quvchilarga mavzuni tushuntirib beruvchi taqdimot, video va ma'lumotlar joylanadi. Uyga vazifa uchun topshiriqlar va e'lonlar yuboriladi<sup>17</sup>.

### **“Domino” o'yini.**

Bu metod uyga vazifani so'rash qismida o'tkazilishi mumkin. Dastlab o'qituvchi Janni Rodari hayoti va ijodi bo'yicha savol-javob tuzadi. Kartochkalarga savol-javoblarni sinfdagi o'quvchilar soniga qarab aralash holatda yozib chiqadi. O'quvchilar guruhlariga bo'linadi va kartochkalar tarqatiladi. Birinchi o'quvchi savolni o'qiydi, qaysi o'quvchida javobi berilgan bo'lsa, o'sha javob beradi va o'zidagi savolni o'qiydi. Holat shu tariqa davom etadi. Bu metodni qo'llashdan maqsad shuki, o'quvchilarning o'zaro hurmat va diqqatini jamlash, o'tilgan mavzu bo'yicha bilimlarini baholash va darsga barcha o'quvchilarni jalb qilish imkoniyatini beradi.

---

<sup>17</sup> <https://uz.eyewated.com/google-clasroom-yaratish>

J. Rodarining hayoti va faoliyati haqida gapirib bering

Adib ertakchilikka qanday kirib keldi?

“Hurishni eplolmagan kuchukcha” ertagidagi kuchukcha obrazining uch xil yakunidagi holatini izohlang.

Ertakning uchinchi tugashida kuchukning suyunib ketish sababini ayting.

- Yozuvchi ertakchilikda qanday yangilik yaratdi?

Nima uchun adib ertakning uchinchi tugashinin ma’qullagan?


J. Rodarining yana qanday ertaklari bor?

Adib qanday xalqaro mukofotga erishadi?

“Sariq devni minib” romanida ishtirok etgan obrazlarni tahlil qilishda „**Klaster**” metodini qo‘llash ham yaxshi samara beradi. „Klaster” metodi – ta’lim oluvchilarda berilgan muammolar bo‘yicha erkin, ochiq o‘ylash, shaxsiy fikrlarni bemalol bildirish va turli javoblar o‘rtasida bog‘liklik o‘rnatish hamda guruhlash imkoniyatini yaratuvchi metoddur. Bunda o‘quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg‘ulotlar jarayonida foydalanish mumkin.



Klasterlar tuzish o‘quvchilarning tasavvurlarini yangi bog‘lanishlar bilan boyitish, ularni grafik ko‘rinishda ifodalash hamda mavzu bo‘yicha yakuniy muhokama o‘tkazish vositasi sifatida qo‘llanilishi mumkin. Bu ularning yangi bilimlarni yaxshi o‘zlashtirilishi, muayyan mavzu to‘g‘risidagi tasavvurlarini kengaytirish va unga tegishli bog‘liqliklarni tushunishlariga yo‘l ochadigan metoddir. Masalan, Hoshimjon obrazi asosida klaster tuzaylik. Buning uchun xayolimizga kelgan barcha so‘z, tushuncha, g‘oyalarni yozib chiqamiz. Ularni aloqadorlikda quyidagi “Hoshimjon” klasterida aks ettirishimiz mumkin.




### **“Kungaboqar” usuli.**

O‘quvchilar 4-5 kishidan iborat guruhlariga bo‘linadi. O‘qituvchi fanning mavzusidan kelib chiqib, o‘rtaga bitta muammoni tashlaydi. Har bir guruh kungaboqar yasab, uning markaziga doira joylashtirib, barglar yopishtiradi. Mavzuga qarab, doiraga har bir guruhga yoki umumiy bitta muammo yozilib, doskaga yopishtiriladi. Ajratilgan vaqt ichida guruhlar birgalikda fikrlarini bargga yozib, uni o‘sha guruh muammosi yozilgan gulga joylashtirib qo‘yadilar. Bu

uslubdan o‘tilgan mavzuni tushuntirish, uni mustahkamlash va takrorlash hamda talabalar egallagan bilimlarni aniqlashda foydalanish mumkin.

### **„Nima uchun“ muammoli ta’lim texnologiyasi**

Muammoning dastlabki sabablarini aniqlash bo‘yicha fikrlar zanjiri. Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlarni rivojlantiradi va faollashtiradi. „Nima uchun“ sxemasini tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida kichik guruhlarda muammoni ifodalaydilar. „Nima uchun?“ so‘rog‘ini beradilar va sxema chizib, shu savolga javob yozadilar.




### **SWOT tahlil metodi**

Ushbu tahlil metodi munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o‘tkazishda yoki biron-bir mavzu o‘rganilib bo‘lingach qo‘llanilishi mumkin. Bu texnologiya o‘quvchilarni o‘z fikrlarini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga, o‘quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda bahslashish madaniyatiga o‘rgatadi.

„SWOT“ so‘zi quyidagi inglizcha so‘zlarning qisqartmasidan olingan:

- S – Strengths (Kuchli tomonlari);
- W – Weaknesses (Zaif, kuchsiz tomonlari);
- O – Opportunities (Imkoniyatlari);
- T - Threats (Xavf-xatar yoki to‘siqlar).

Mazkur metoddan “Botir tikuvchi” ertagini o‘rgatish davomida foydalanish mumkin. Ya’ni guruhlariga bo‘lingan o‘quvchilar oldiga Gansning kuchli tomonlari, kuchsiz tomonlari, imkoniyatlari va bunga to‘siq bo‘luvchi omillarni aniqlash vazifasi topshiriladi. Shundan so‘ng o‘quvchilarning o‘z mustaqil qarashlari tinglanadi, bahs-munozara uyushtiriladi, ularning ijodiy fikrlash va o‘z fikrini isbotlash malakalari rivojlantiriladi.



### ***3.2. Umumta’lim maktab darsliklarida bolalar yozuvchilari hayoti va ijodi bo‘yicha takliflar.***

X. To‘xtaboyevning darslikda berilgan “Sariq devni minib” romani juda qiziqarliligi bilan o‘quvchilarga juda yoqadi. 6- sinf o‘quvchisi qabul qila oladigan darajadagi roman deb tan olinganligi uchun ham darslikdan joy olgani ma’lum. Darhaqiqat, aynan 12-13 yoshli bolalarda bo‘ladigan sho‘xliklar-u, o‘y- xayollar ro‘yirost aks ettirilgan. Shu bilan birga, adabiyot o‘qituvchisi nafaqat adibning darslikdagi asarini balki barcha asarlari bilan to‘liq tanishgan bo‘lishi shart. Kezi

kelganda, o'quvchiga tushuntirib berishi, qaysi kitobni o'qishga tavsiya qila bilishi shartli mezondir. Shu jihatdan men ham X. To'xtaboyevning "Qasoskorning oltin boshi" romanini mutolaa qilganman. Roman markazida bosh qahramon – tarixiy shaxs, xalq qasoskori Namoz taqdiri yotadi. "Qasoskorning oltin boshi" tarixiy-biografik roman emas, shuning uchun ham adib Namozning hayotini batafsil yoritib berishni maqsad qilib olgan emas. Lekin o'rni-o'rni bilan uning hayotiga doir ma'lumotlar berib borgan. Bu ma'lumotlar uning xarakterini tushunib olishda kitobxonga yordam beradi. Namoz faqat jismonan emas, aqlan ham yetuk. U haqiqat uchun qasoskor, qo'rqmas, tadbirkor, ochiqko'ngil qahramon sifatida gavalantirilgan. U atrofiga o'zi kabi dovyurak yigitlarni to'plab, zulmkorlarga qarshi kurashga undaydi.

Halolligi, mardligi, adolatliligi, yetimparvarligi uchun xalq Namozni yaxshi ko'radi va Go'ro'g'liga qiyos qiladi: "Go'ro'g'libek Namozboy qiyofasida paydo bo'lgan emish. Afsun o'qisa ko'zdan g'oyib bo'lib qolarmish. Undan o'q o'tmas emish, qilich chopmas emish..." Namozning mardligi, jasorati xalq qalbida mangu yashab kelayotganligi "Qasoskorning oltin boshi"da yaxshi chizib berilgan.

Iste'dodli bolalar adibi Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sir ochildi", "Aka-uka Omonboy bilan Davronboyning qishloqqa gaz olib kelganlari haqida jajji qissa", "Besh bolali yigitcha", "Shirin qovunlar mamlakatida yoki sehrgarlar jangi", "Mungli ko'zlar", "Jannati odamlar" kabi yirik asarlarining yuzaga kelishi o'zbek bolalar adabiyotining yutug'i hisoblanadi. U bolalar uchun yanada o'qimishli asarlar yaratish maqsadida tinimsiz izlangan. Yozuvchining yana ko'plab asarlarini bolalarga o'qishga tavsiya qilsak bo'ladi.

Bolalarning sevimli shoiri Anvar Obidjon maktab darsligining 5-sinfidan o'rin olgan. **Ammo mening mualliflarga shaxsiy e'tirozlarim bor. Sababi, darslikda shoirning hayoti ijodiga haddan ortiq ko'p miqdorda asarlari, to'plamlari nomlari kiritilgan. Bundan tashqari, o'qish uchun berilgan she'rlaridan ba'zilari ("Hayotning har lahzasi go'zal", "Tinch kunlar") ham bu yoshdagi o'quvchining tafakkuriga muvofiq emas, deb o'ylayman. Bularni**

eslab qolish esa 5- sinfning 10- 11 yosh bolasiga juda og'irlik qiladi, menimcha. Adabiyotning vazifasi shoir yoki yozuvchining hayot yo'li, asarlarini yodlashdan iborat emas, balki bolaning ruhiyatini, dunyoqarashini rivojlantirishga qaratilgan.

**Ma'lumki, darsliklar to'rt yildan qayta nashr qilinadi. Aynan 5- sinfning adabiyot darsligida A. Obidjon hayoti va ijodini qayta ko'rib chiqishlarini xohlagan bo'lardim.**

Shoirning «Hali o'zim bolaman-ku!», «Sinchkov bola», «Shu ham filmi?» kabi o'nlab she'rlari shu jihatdan nihoyatda xarakterlidir. Shoirning mahorati shundaki, u bola dunyoqarashidagi o'ziga xosliklarning tub-tubini ko'ra oladi. Ichki olamini, o'y-xayollarini, kichik qalbida kechayotgan ruhiy jarayonlarni noziy did bilan kuzatadi. Bir qaraganda, juda oddiy ko'rinadiki kichik-kichik she'rlarda Inson tabiati shakllanishining dastlabki bosqich jarayonlari keng ko'lamda tahlil etib beriladi. Samimiy yumor, yengil hajv elementlari yorqin ko'zga tashlanadi:

Dadajonim, Dadajon,  
Axir kimga «Ota» man?  
Otim nega Otajon?  
Shuni o'yla-a-a-b yotaman.

She'rni o'qir ekanmiz, endigina so'zlar ma'nosini anglay boshlayotgan bolakayning holati ko'z o'ngimizda keladi. Uning kutilmagan «muammo» li masala oldidagi o'ychanligi o'quvchining labida nurli tabassum paydo qiladi, qalbida kichkintoyga nisbatan issiq bir tuyg'uni uyg'otadi. «Baliqchining ashulasi» da ham yuqoridagi she'rdagi kabi bola holati lo'nda, aniq tasvirlanib, kichkintoylar tabiatiga xos beg'ubor samimiyat bilan ifoda etiladi.

Nor o'tirar qirg'oqda,  
Asta aytar ashula:  
Ikki ko'zi qarmoqda.  
«Mehmonga kel, akula!...»

Bolalar xarakterida uchraydigan bezarar aldamchilik, yengil ta'magirlik, befoyda odamovilik, ortiqcha pismiqlik, sodda g'iybatchilik, o'ta mechkaylik mayda xudbinlik kabi «o'tkinchi kamchiliklar» ni avaylabgina fosh etish ham shoir ijodiga xos jihatlardan. U bolalar fe'lidan asorat qoldirishi mumkin bo'lgan bu salbiy xususiyatlarni qoralashga, qalbiga jarohat yetkazadigan «ayovsiz satira» usullarini mutlaqo qo'llamaydi

Anvar Obidjon faqat tabiatni tasvirlovchi, turfa xil, ramziy, majoziy obrazlar yaratuvchigina emas, balki ijodining kata qismida bolalar dunyosi, ruhiyatini ham tasvir etgan. Uning «Kulchalar» va «Botirvoyning kundaligi» turkumlaridagi qahramonlarning deyarli hammasi turli yoshdagi bolalardir.

Bu she'rlarda bolalik tuyg'ularining sofligi, orzu-umidlarning beg'uborligi, tabiatan bir oz shumligi, quvnoqligi kata iste'dod bilan ochib beriladi, o'quvchini goh yayrab -yayrab kulishga, goh jimgina o'ylashga, fikrlashga, xulosalar chiqarishga undaydi.

Chakalakda sichqon  
Bo'lib qoldi sulton.  
To'ng'iz unga vazir,  
Lashkarboshi – qoplon.  
Yasovuli – Bo'ri,  
Tulki xolla cho'ri.  
Mushuk esa tomda  
Tozalardi sho'ri.

Bugungi kunda Anvar Obidjonning o'nlab qissa va dostonlari ertak va dramalari bolalar qo'lidan tushmay kelayotir.

Ma'lumki, kichik yoshdagi bolalar o'zidan kattalarga ergashish va taqlid qilish barobarida kitoblarni o'qib, ulardan bilib olgan va o'ziga yoqqan qahramonlaridek bo'lishga, ularday so'zlashishga intiladi. Shuning uchun bolalar uchun yozuvchi ijodkorlar zimmasiga boshqalardan ko'ra og'irroq, jiddiyroq, yuksak mas'uliyat yuklanadi. Shu mas'uliyat va sharafli

majburiyatni chuqur his qiladigan bolalar yozuvchilari hatto har bir soʻz yoki iborani ehtiyotkorlik bilan ishlatadilar.

Shu muhim masala bolalar yozuvchilarining diqqat eʼtiborini hamisha oʻziga qaratishi lozim. Xususan, umumiy taʼlim va hunar maktabini isloh qilish, mukammallashtirish toʻgʻrisidagi qarorlarda maktab bilan yozuvchilar aloqasini mustahkamlashga alohida urgʻu beriladi. Oʻzbekiston Xalq taʼlimi vazirligining maktablarda taʼlim-tarbiya ishlarini yanada yaxshilash va mustahkamlash, bu boradagi dasturalamal qaror<sup>18</sup>larni tezda amalga oshirish haqidagi koʻrsatmalari bolalar yozuvchilariga ham aloqadordir. Demak, bolalarga yozilgan asarlar gʻoyaviy-badiiy, tarbiyaviy-nafosat jihatdan juda mukammal boʻlishi talab qilinadi.

Shu talablar bilan bolalar sheʼriyatiga nazar tashlaydigan boʻlsak, Quddus Muhammadiy, Poʻlat Moʻmin, Ilyos Muslim, Doʻstjon Matjon kabi otaxon shoirlarimiz asarlari diqqatga loyiq. 70-yillar oʻrtalari va 80-yillar boshlarida bolalar sheʼriyatiga Anvar Obidjon, Abdusaid Koʻchimov, Habib Rahmat, Ollabergan Poʻlatov, Hamza Imomberdiev, Kavsar Turdiev kabi shoirlar oʻzlariga xos ovoz bilan kirib keldilar. Ayniqsa, Anvar Obidjon, Ollabergan Poʻlatov, Abdusaid Koʻchimovlarning sheʼr va ertaklari badiiy salmogʻi, mazmunan teranligi, poetik mantiq va mushohadaning izchilligi, maʼno va til birligining ravshanligi, umuman xalqchilligi bilan ajralib turadi. Ular bolalarga fikrlarini ibtidoiy nasihat yoʻli bilan emas, balki badiiy tahlil va tadqiqi orqali, shuningdek jonli va ramziy tasvir-u ifodalar vositasida singdirishga intiladilar. Hozirgi bolalarning bilimi, dunyoqarashi, feʼl-atvori xuddi shu narsani talab qiladi. Anvar Obidjon sheʼrlari- bolalar qalbi, ruhining yorqin koʻzgusi. Uning asarlari oʻzidek quvnoq, goh oʻychan, tili sodda va shirin, xalqchil.

Qahramonalar insonparvar, bagʻrikeng, hazilkash bolalar. Shu tufayli shoir barcha bolalar diliga osongina yoʻl topa oladi. Anvar Obidjon

---

<sup>18</sup> Oʻzbekiston Respublikasi XTV ning qarorlaridan

soʻzlarni chertib-chertib, bolalarning yosh xususiyatlariga mansublarini tanlaydi va oʻz oʻrnida ishlatadi. Bu uning deyarli barcha sheʼriy asarlariga xos fazilat. Eng quvonarlisi shuki, bola Anvar Obidjonning sheʼrlarini tutilmasdan, qiynalib-qoqilmasdan, erkin, ravon oʻqiydi. Shoir sheʼr uchun chiroyli, qiziqarli, original detallarni topa oladi.

Ushbu yoʻnalishda oʻquvchiga maʼqul keladigan, avvalgilarga nisbatan yaxshiroq asarlar yaratish, bu borada kashfiyot qilish nihoyatda murakkab bir yumush edi. Anvar Obidjon oʻz turkumlarida ana shu boqiy mavzuni bolalar ongiga, dunyoqarashiga, ruhiyatiga mos tarzda badiiy talqin etishda oʻziga xoslik topa oldi. Uning sheʼrlarida tabiat turfa rang va ohanglarda namoyon boʻladi. Shoirning ona tabiat haqidagi sheʼrlarida hayotga, insonga muhabbat, uning boqiyiligiga ishonch tuygʻusi koʻzga tashlanadi, yosh kitobxon qalbini hayajonga soladi. Ularda biz bilan yonma-yon yashayotgan har bir jonzot, har bir oʻsimlik tabiat inʼom etgan tiriklikdan zavqlanadi, bu dunyoda yashashning oʻzi quvonch ekanligini tarannum etadi. Shoir ularda tashxis (jonlantirish) va intoq (Odamlarday soʻzlatish) sanʼatlaridan mohirlik bilan foydalanib, turli jonzotlarni, hatto jonsiz narsalarni ham bolalarday xatti-harakatlarida, soʻzlatadi. Yaratilgan obrazlarning koʻpchiligi goh monolog, goh suhbat, goh qoʻshiq, goh tarjimayi hol, goh maktublar usullaridan qalblarga bor haqiqatday boʻlib quyiladi. Ular benihoyat soddaligi va sami miyligi, beozor kulgiga yoʻgʻrilganligi bilan oʻquvchini oʻziga rom etadi.

**J. Rodarining 6- sinf adabiyot darsligida “Hurishni eplolmagan kuchukcha”, “Qutbdagi gunafsha” ertaklari kiritilgan boʻlib, ular oʻquvchining yoshiga muvofiq tanlangan deb bilaman. Ammo „Rim ertaklari” turkumiga kirgan „Shahzoda Plombir” ertagi esa joriy darslikdan olib tashlangani menga maʼqul emas. Chunki, bu ertak qiziqarli va shu bilan birga oʻquvchida tadbirkorlikni shakllantira oladigan asar edi. Bundan tashqari, u zamonaviy muammolarga daxldorligi bilan qiziqarlidir. Unda**



anʼanaviy ertaklaragi qahramonlarni ogʻir, murakkab vaziyatlardan qutqaruvchi sehrli tayoqcha yoxud sehrli qalpoqcha oʻrnini reklama egallaydi.

„Shahzoda Plombir” ertagining qahramoni senyor Molteni „Qoʻshaloq qutb” firmasidan kreditga, yaʼni qarzga xolodilnik olgan. Maʼlumki, kreditga olingan buyumning haqini oyma-oy oz-ozdan toʻlab borish kerak. Lekin senyor Molteni bu qarzni ikki oydan buyon toʻlay olmayapti. Buning oqibati esa maʼlum: qarzini oʻz vaqtida toʻlay olmagan uchun firma uning xolodilnigini qaytarib oladi.

Xuddi shu oʻrinda moʻjiza roʻy beradi. Senyor Molteni yashaydigan koʻp qavatli uyning barcha xonadonlaridagi xolodilniklar ichiga samoviy kelgindilar-marsliklar joylashib olishadi. Oʻz sayyoralarida falokat xavfi tugʻilgani sababli ular yerning Shimoliy qutbga yoʻl olishadi. Biroq kemalarining yoqilgʻisi tugab (bu yonilgʻi yangi yogʻgan qor), ular senyor Molteni yashaydigan uyga qoʻnishga majbur boʻlishadi. Xullas, bu voqea haqidagi xabar butun shaharga, shahardan esa butun dunyoga tarqab ketadi. Ayniqsa, senyor Moltenining xolodilnigiga joylashib olgan kelgindilarning boshligʻi- shahzoda Plombirni koʻpchilik yaxshi koʻrib qoladi. Uning hatto, televizor orqali soʻzga chiqishi katta shov-shuvlarga sabab boʻladi.

Bozor iqtisodiyotining xususiyatlaridan biri shuki, unda biron bir firma yoki kompaniya oʻz mahsulotini qanchalik koʻp sotsa, shunchalik boyiydi va yanada taraqqiy etadi. Shuning uchun ham ular oʻz mahsulotlarini reklama qilish uchun katta- katta mablagʻ sarflashadi. „Shahzoda Plombir” ertagida ham yozuvchi reklamaning ajabtovur xususiyatini muammoning yechimi qilib oladi. Yaʼni, senyor Molteni xolodilnigiga joylashgan shahzoda Plombir bayonot berib, unda „Qoʻshaloq qutb” markali xolodilniklarni Quyosh sistemasidagi eng ajoyib muzlatkichlar deb eʼlon qiladi. Demak, endi bu firmaning ming-minglab xaridorlari paydo boʻladi, firma egalariga katta daromad oqib kela boshlaydi. Shahzoda Plombir aytganidek, senyor Moltenidan „Qoʻshaloq qutb” firmasi nafaqat toʻlanmagan qarzni, hatto, qolgan pulni ham talab qilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, butun dunyo bolalarining sevimli yozuvchisiga aylangan J. Rodarining sanab o‘tilgan ertaklari, xususan,,„Shahzoda Plombir” asarini topib o‘qish Sizga olam-olam zavq berishi, shubhasiz.

„Hurishni eplolmagan kuchukcha” ertagidan o‘quvchilarga muammolar yaratib beriladi va o‘quvchilardan yozma ravishda javobi so‘raladi.

## **Xulosa:**

Bitiruv malakaviy ishimizning xulosaviy qismi haqida soʻz yuritar ekanmiz, quyidagi masalalarni yana bir bor taʼkidlashni, tavsiya va takliflarni ilgari surishni maʼqul koʻrdik. Oʻzbek bolalar adabiyoti oʻzbek adabiyotining tarkibi qismi sifatida katta ijodiy yoʻlni bosib oʻtdi. Sobiq shoʻrolar davrida ham mustaqillikka erishganimizdan keyin ham jadal rivojlandi, deb xulosa chiqarishga asoslar yetarli. Bolalar adabiyotining turli janrlarida oʻnlab- yuzlab asarlar yozildi va bolalarga sovgʻa sifatida taqdim etildi. Bir soʻz bilan aytganda, bolalar adabiyoti namunalari qaysi janrda yozilgan boʻlishiga qaramasdan, yoshlarni maʼnaviy barkamollik ruhida tarbiyalashda muhim vosita vazifasini bajardi. Bu jarayon shu kunlarda ham qizgʻin davom etmoqda. H. H. Niyoziydan boshlangan zamonaviy bolalar adabiyoti soʻnggi davrlarda S. Joʻra, H. Nazir, P. Moʻmin, Q. Hikmat, Q. Muhammadiy, X. Toʻxtaboyev va yana oʻnlab soʻz ustalari tomonidan izchil rivojlantirildi. Bu adiblarning aksariyati oʻzbek bolalar adabiyotini dunyo arenasiga olib chiqishga salmoqli hissa qoʻshdilar.

Oʻzbek bolalar adabiyotini oʻrganish qanchalik dolzarb boʻlsa, ular ijodini umumtaʼlim oʻrta maktablarida chuqur oʻrganish undan ham muhim masala desak, mubolagʻa emas. Bolalar adabiyotining nodir namunalarini maktab dasturlariga kirib oʻrganish, bolalarni adabiyotga qiziqtirish, ularda vatanaparvarlik, insonparvarlik, haqiqatgoʻylik gʻoyalarini shakllantirish bugungi kunning kechiktirib boʻlmaydigan masalalarida deb bilamiz. Bitiruv malakaviy ishimizni yozish jarayonida shunday xulosaga keldikki, oʻzbek bolalar adabiyotini oʻqitish, oʻquvchilarga oʻrgatish shu darajada zarur ekanki, bolalar adabiyotini oʻrganmasdan turib, kattalar adabiyotini oʻquvchilar ongiga singdirish ancha mushkul.

Oʻzbek bolalar adabiyoti oʻz- oʻzidan shakllangan emas. Bu adabiyotning paydo boʻlishi, shakllanishida jahon va qardosh adabiyotning ham oʻziga xos taʼsiri bor. Demak, maktablarda oʻzbek bolalar adabiyotini oʻrgatishda ularga qoʻshimcha sifatli jahon bolalar adabiyoti namunalarini ham oʻrgatish yaxshi

samara beradi. Shu nuqtayi nazardan biz bitiruv malakaviy ishimizda jahon bolalar adabiyotini o'rganish va o'rgatish N. Dumbadze, J. Rodari, Aka- uka Grimmlar singari adabiyot vakillarini o'quvchilarga qanday usullarda o'rgatish metodlari haqida o'z mulohazalarimizni bayon etishga intildik. Pedamaliyot jarayonida buning ijobiy samaralarini ham ko'rdik.

Ishimizning bir bobini A. Obidjon va X. To'xtaboyev ijodini o'rganish masalalariga bag'ishladik. A. Obidjon shoir bo'lsa, X. To'xtaboyev nasrda qalam tebratgan taniqli yozuvchi. Har ikki adibning bolalarbop asarlarining maktab darsligiga kiritilgani ayni muddao. BMIda A. Obidjon ijodini o'rganishda qanday vositalardan foydalanish yaxshi samara berishi mumkinligini misollar bilan isbotlashga harakat qildik. X. To'xtaboyevning "Sariq devni minib" romanini o'rgatish usullari haqidagi kuzatishlarimizni ilgari surdik. Ko'rgazmalilikning shoir va yozuvchilar ijodini o'rgatishdagi ahamiyati to'g'risida shaxsiy qarashlarimizni bayon etdik. Bu adiblarning ijodini o'rgatishda o'qituvchi faqatgina darslikda berilgan asarlaridangina xabardor bo'lib qolmasdan, ularning butun ijodi bilan tanishgan bo'lishi kerak. A. Obidjon she'rlarini yod aytib berish tajribasi orqali ham foydalansa, o'quvchilarda yaxshi taassurot qoldirishini amaliyotda ko'rdik. Va bu tajribani boshqa o'qituvchilar ham qo'llashini istagan bo'lardik.

Hozirgi talab shundan iboratki, o'qituvchi o'quvchilarni ko'proq mustaqil fikrlashga o'rgatishi zarur. Shunday ekan, sinfda o'qituvchi emas, o'quvchilar faol bo'lishi kerak. O'tilayotgan mavzu yuzasidan o'quvchilarning munosabatini, fikrini bilish, ularni rag'batlantirib borish, har bir o'quvchidan o'tilayotgan asar haqida yohud matn to'g'risida o'z fikrini aytishi talab qilish zarur. Shundagina o'quvchi u yoki bu asar haqida mustaqil fikr aytishga o'rganadi, bahs-u nazoraga faol qatnashadi. Adabiyot o'qitishdan bosh maqsad ham shu, mustaqil fikrlashga o'rgatish, go'zallikni his qilish malakasini shakllantirishdan iborat bo'lmog'i lozim.

Pedamaliyotda ozmi- ko'pmi pedagogik tajriba to'pladik. Shu tajriba asosida bitiruv malakaviy ishimizning uchinchi bobini ochiq dars namunalariga to'xtalдим. X. To'xtaboyev romanlarini maktablarda qanday o'tish mumkin degan savolga javob berishga urindim. Ishning uchinchi bobi o'z tajribamdan kelib chiqib yozildi. Va men bu tajribamni kelajakdagi pedagogik faoliyatimda ham qo'llayman degan umiddaman.

Bitiruv malakaviy ishimni yozish jarayonida menda ba'zi fikr va mulohazalar ham paydo bo'ldi. Mening kuzatishimcha, umumta'lim maktablarida bolalar adabiyotini o'rgatishga ajratilgan soatlar yetarli emas. Shuning uchun bu soatlar miqdori ko'paytirilsa maqsadga muvofiq bo'lardi. O'zbek bolalar adabiyoti hozirgidek faqat katta sinflarda emas, boshlang'ich sinfdan boshlab yaxshi o'qitishsa bolalarning adabiyotga qiziqishi yanada ortgan bo'lardi.

Bitiruv malakaviy ishimning umumiy xulosasi shundan iboratki, umumta'lim maktablarida kattalar adabiyotini o'qitishga qanchalik mas'uliyat bilan yondashilsa, bolalar adabiyotini o'qitishga ham shunchalik mas'uliyat bilan yondashmoq kerak. Buning uchun o'qituvchi o'z ustida ishlamoq'i, ijodni, bolalar adabiyotini chuqur his qilmog'i va sevmog'i lozim. Shundagina har bir o'qituvchi bolalarga qoniqarli darajada dars bera oladi, ularning sevimli ustoziga aylanadi. Bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri ham shu.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh. M. Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017.
2. I. A. Karimov. Barkamol avlod orzusi.– T.: “Sharq” NMIU, 1999.
3. I. A. Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat”, 2008, 61-bet.
4. S. Ahmedov, B. Qosimov, R. Qo‘chqorov, Sh. Rizayev. Adabiyot (Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik). IIqism. – T.: Sharq, 2011-yil, 107-108-betlar.
5. Ezop masallari. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.
6. Alisher Navoiy. “Mahbub ul- qulub” –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi ijodiy- matbaa uyi, 2011. 453- 454- betlar.
7. N. Hotamov, B. Sarimsoqov. Adabiyotshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”, 1983.
8. M. Jumaboyev. Bolalar adabiyoti “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent, 2013.
9. A. Obidjon. O‘g‘irlangan pahlavon. «Salomnomalar» -T.: «Cho‘lpon» 2006, 63-bet
10. J.F. Yo‘ldoshev, S. A. Usmonov Pedagogik texnologiya asoslari. Qo‘llanma.-T.: "O‘qituvchi", 2004.
11. "Ta'lim samaradorligini oshirish yo‘llari" mavzusidagi seminar trening materiallari.-T.: 2002.
12. O‘. Tolipov, M. Usmonboyeva. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari(o‘quv qo‘llanma).-T.: "Fan", 2006
13. Sh. Qurbonov, Y. Seytxalilov Ta'lim sifatini boshqarish.- T.: "Turon-Iqbol", 2006.

14. M. Ibragimov, H. Shermatova Ta'lim jarayonida faol usullarni qo'llash. Uzluksiz ta'lim. –T.: 2005. 5-son.16-17- betlar.
15. A. Obidjon. Tanlangan she'rlar. 2- kitob. –T.: “Sharq”, 2014.
16. X. To'xtaboyev. Sariq devni minib. –T.: “Sharq”, 2013
17. M. Jumaboyev O'zbek va jahon bolalar adabiyoti. – T.: O'qituvchi, 1993.
18. O'zbek bolalar adabiyoti antologiyasi. – T.: Cho'lpon, 2006.
19. Adabiyot va san'at. Adabiy tanqidiy maqolalar, o'ylar, munozaralar. T.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1987.
20. A. Obidjon. Alamazon va Gulmat hangomasi: Qissalar, hajviyalar. – T.: Cho'lpon, 1992.
21. A. Obidjon. Juda qiziq voqea. –Toshkent, “Yulduzcha” nashriyoti. 1987.
22. Ahmad Yassaviy “Hikmatlar” nashrga tayyorlovchi I. Haqqulov. –T.: 1991.
23. Ahmedov S., Qosimov B. va boshq. 6- sinf adabiyot darsligi, 2020, 253-254- betlar.
24. 2020-2021- o'quv yili uchun o'quv dasturi
25. O'z.Res XTV qarorlari
26. [www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz)
27. [www.literature.uz](http://www.literature.uz)
28. [www.kutubxona.uz](http://www.kutubxona.uz)
29. [www.book.uz](http://www.book.uz)
30. [www.saviya.uz](http://www.saviya.uz)
31. <https://t.me/mutolaasehri>
32. <https://eduportal.uz>
33. [www.fayllar.uz](http://www.fayllar.uz)
34. [www.aim.uz](http://www.aim.uz)

**Turkiy tillar fakultetining o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi bitiruvchisi  
Y. Shamuratovaning “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida bolalar ijodkorlari  
hayoti va ijodini o‘qitish usullari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga ilmiy  
rahbar xulosasi**

Talabaning bitiruv malakaviy ishining mavzusi ta’lim tizimining eng dolzarb masalalaridan biriga bag‘ishlangan. Chindan ham, hozirgi vaqtda umumta’lim maktablarida adabiyot darslarini, jumladan, bolalar adabiyotini o‘rganish eng muhim jarayonlardan biri bo‘lib turibdi. Shu ma’noda talabaning ushbu mavzuni tanlagani o‘rinli bo‘ldi deb hisoblayman. Y. Shamuratova mavzu yuzasidan ko‘p ilmiy va ilmiy- metodik adabiyotlarni o‘qib chiqdi. Eng muhimi, u mavzuni pedamaliyotda o‘tkazgan tajriba asosida yozishga harakat qilgani yaxshi natija berdi.

Talaba ishning uch bobi va bir necha fasllariga tanlagan mavzuni imkoni darajasida yozishga muvaffaq bo‘ldi. Jahon bolalar adabiyotida o‘rni bor yozuvchilar- Ezop, J. Rodari, Aka- uka Grimmlar, N. Dumbadze, shuningdek, o‘zbek bolalar adabiyotining atoqli shoir yozuvchilari A. Obidjon va X. To‘xtaboyev asarlari misolida mavzuni talab darajasida yoritdi degan fikrdaman. Ishning uchinchi bobi, ya’ni dars ishlanmasi va talabaning o‘z pedamaliyotda olgan tajribalari asosida yozilgandiki, bu ham ishning ijodiy xarakteridan darak beradi. Ish talab darajasida yaxshi xulosalangan deb hisoblayman. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati ham talabaning mazkur mavzu yuzasidan ancha ilmiy va ilmiy- metodik asarlar bilan tanishib chiqqanidan darak beradi.

Yuqorida aytilganlarning barchasi Y. Shamuratovaning ushbu bitiruv malakaviy ishi talab darajasida yozilgan va u himoyaga tayyor tadqiqot sifatida taqdim etilishi mumkin.

**Ilmiy rahbar: Filologiya fanlari doktori, professor K. Quramboyev**



**Turkiy tillar fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi O‘zbek adabiyoti kafedrası bitiruvchisi Y. Shamuratovanning “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida bolalar ijodkorlari hayoti va ijodini o‘qitish usullari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

**TAQRIZ**

Pedagogik ta’lim jarayonini o‘rganish, qaysi fan sohasida bo‘lishidan qat’i nazar, hamisha dolzarb bo‘lib kelgan. Ayniqsa, hozir ta’lim sifatini ko‘tarish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bir paytda bu mavzuni o‘rganishning ahamiyati yanada oshadi. Shu mantiqdan kelib chiqsak, Y. Shamuratovanning bitiruv malakaviy ishining mavzusi juda ahamiyatli va kerakli mavzulardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bu mavzuda bitiruvchi kurs talabalarining tadqiqot yozishi, bugun oliy o‘quv yurtini tamomlab, ertaga maktablarda dars bera boshlayman deb turgan yoshlarning ish yozgani ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega deb hisoblayman.

Y. Shamuratovanning bitiruv malakaviy ishi kirish va xulosadan tashqari uch asosiy bobdan iborat. Boblar va ularning qismlari umumiy mavzudan kelib chiqib tuzilgani maqsadga muvofiq bo‘lgan. Uch bob ham bolalar adabiyotini o‘rganish masalalariga bag‘ishlangan. Birinchi bobda jahon bolalar adabiyoti namunalarini o‘rganish, jumladan, Ezop, N. Dumbadze, J. Rodari, Aka- uka Grimmlar va boshqa jahonda tan olingan ijodkorlarning asarlarini o‘rganish nazarda tutilgan. Tilga olingan ijodkorlarning bolalar adabiyotiga qo‘shgan hissasi haqida bolalarga qanday usullarda ta’lim berish yo‘llari to‘g‘risida talaba so‘z yuritishga intilgan.

Tadqiqotning ikkinchi bobida o‘zbek bolalar adabiyoti taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shgan A. Obidjon, X. To‘xtaboyev singari adiblarning bolalarbop asarlarini o‘rganish usullariga to‘xtagan. Xususan, X. To‘xtaboyevning romanlari, “Sariq devni minib” romanini bolalarga qanday usullarda o‘rgatish masalalari tadqiq qilinadi. Romanning obrazlarini turkumlarga bo‘lib o‘rganish, yozuvchining mahorat qirralarini ochish va o‘quvchilarni yuksak axloqiy ruhda tarbiyalaydigan

romanning fazilatlarini ko‘proq tahlil qilishga urinilgani tadqiqotning yutuqlaridan biri deb bilaman.

Bitiruv malakaviy ishning menda katta taassurot qoldirgan bir fazilatini alohida qayd etishni istayman. Bu talabaning har ikki yozuvchi- X. To‘xtaboyev va A. Obidjon ijodlarini chuqur bilganida va ular ijodi to‘g‘risida emin- erkin fikr yurita olish salohiyatida ko‘rinadi. Talabaning ishni ijodiy xarakterda yozganiga guvoh bo‘ladigan yana bir jihat bor. Y. Shamuratova darsliklarga munosabat bildiradi, bolalar adabiyotiga ajratilgan soatlar yetarli emasligi, bolalar adabiyotidan namunalar ko‘proq kiritilishi zarur degan taklifni ilgari suradiki, bu fikrga men ham tarafdorman. X. To‘xtaboyev ijodi yuzasidan ishlangan dars ishlanmasi, talabaning taklif va mulohazalari, o‘zining pedamaliyotda to‘plagan tajribasi asosida yozilgani menda qoniqish hissini uyg‘otdi. Tadqiqotning xulosa qismi ancha batafsil yozilgan, talaba ishning asosiy mazmunini xulosada ixchamlashtirib bera olgan. Bularning barchasi tadqiqotning ijobiy xususiyatlaridir. Bitiruv malakaviy ishdagi mayda- chuyda kamchiliklarga e‘tibor berib o‘tirmadim. Ular tadqiqotning umumiy bahosiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmasa kerak.

Men taqrizchi sifatida mazkur tadqiqotni yuqori bahoga loyiq ishlardan biri deb hisoblayman.

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,**

**O‘zbek adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi:**

**H. Allambergenov**

**Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI Turkiy tillar fakulteti o‘zbek tili va  
adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi bitiruvchisi Y. Shamuratovanning  
“Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida bolalar ijodkorlari hayoti va ijodini  
o‘qitish usullari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

**TAQRIZ**

Mustaqillik yillarida umumta’lim maktablarida ta’lim sifatini ko‘tarish bo‘yicha ko‘p ishlar amalga oshirildi. Farmon va qarorlar qabul qilindi. Ularning ijrolari ham yaxshi samaralar bermoqda. Barcha fanlarni, jumladan, o‘zbek adabiyotini, aytaylik bolalar adabiyotini o‘qitish usullarini takomillashtirish bo‘yicha ham qator tadbirlar ko‘rilmogda. Bu jarayonlarni o‘rganish adabiyotshunoslik, xususan, pedagogik ta’lim nazariyasi bilan shug‘ullanadigan olimlar zimmasidagi mas’uliyatli vazifalardan biri ekanligi ham haqiqat. Shu ma’noda, Y. Shamuratovanning mazkur mavzuni tanlaganni juda o‘rinli bo‘lgan deb hisoblayman.

Ishning qurilishi, boblari va boblarning fasllarga ajratilgani menda ijobiy taassurot qoldirdi. Jahon adabiyoti namunalarini, bolalarga tegishli asarlarning o‘rganilishi bilan bog‘liq ishning birinchi bobidagi talaba kuzatishlari yaxshi. Bob ijodiy xarakterda yozilgani seziladi. Tadqiqotning ikkinchi bobida o‘zbek bolalar adabiyotining ikki ulkan ijodkorlari- A. Obidjon va X. To‘xtaboyev ijodlari haqida so‘z yuritiladi. Ularning maktab dasturlariga kiritilgan asarlarining o‘qitish usullari yuzasidan talaba o‘z kuzatishlarini o‘rtaga tashlaydi. Adiblarning eng mashhur asarlari qanday usullarda o‘rganish haqida ham o‘z takliflarini ilgari suradi. Va takliflar amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, har bir o‘qituvchi bolalar adabiyotini o‘rgatishda foydalanishi mumkin deb hisoblayman.

Tadqiqotning uchinchi bobini talaba dars ishlanmalari va taklif, mulohazalarga bag‘ishlangan. Asosan,, X. To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” romanini bolalarga o‘rgatishda qanday usullarni qo‘llash, qanday ko‘rgazmalilikdan foydalanish bo‘yicha o‘z takliflarini aytgan. O‘zi ishtirok etgan dars jarayonlaridan olingan rasmlarning ishga ilova qilingani tadqiqotning amaliy

ahamiyatidan darak beradi. Ishning menda yaxshi taassurot qoldirgan yana bir xususiyatini alohida ta'kidlab aytishni istardim. Tadqiqot talabaniing pedamaliyotda olgan tajribasi asosida yozilgani menga juda ma'qul bo'ldi. Bu harakat ishning ijodiy xarakterda yozilganini anglatadi. Talaba tadqiqot oxirida (xulosasida) darslik va qo'llanmalar, bolalar adabiyotiga ajratilgan soatlarning yetarli emasligi haqidagi fikrlarni bildiradiki, bu mulohazalarni men ham to'la qo'llab- quvvatlayman. Umuman, maktablarda bolalar adabiyotini o'qitish usullari to'g'isidagi talabaniing kuzatishlari, taklif va mulohazalari menda yaxshi taassurot qoldirdi. Har bir bitiruv malakaviy ishi xuddi mana shunday xarakterda yozilishi tarafdoriman.

Har qanday mukammal deb tan olingan tadqiqotda ham o'ziga xos nuqsonlar, me'yoriga yetmagan jihatlar, to'ldirilishi lozim bo'lgan o'rinlar bo'lishi tabiiy. Shu ma'noda bu ish ham shunday nuqsonlardan xoli emas, nazarimda. Birinchi kuzatgan narsam shu bo'ldiki, ishning ikkinchi bobida shoir va yozuvchilarniing ijodini o'rganishdagi fikrlardan ko'ra, ularning ijodi, adabiy portret haqida ko'p gapirilgan. Ularni biroz ixchamlashtirib aytsa ham bo'lardi. Masallar ishda ortiqcha keltirilgan.

Lekin bu aytilgan nuqsonlar ishning umumiy bahosiga mutlaqo ta'sir qilmaydi. Bu kamchiliklarni talaba keying pedagogik faoliyatida hisobga olishi kerak degan ma'noda aytdim. Bitiruv malakaviy ishi yuqori saviyada yozilgan va u eng yuqori bahoga munosib deb hisoblayman.

**Berdaq nomidagi QDU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti,  
filologiya fanlari nomzodi: H.Abdullayev**